

**TDIU HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH
TARMOQ MARKAZI**



TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI



**O'QUV USLUBIY
MAJMUA**

TOSHKENT-2024

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIV TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISHNI TASHKIL ETISH BOSH ILMIV-METODIK
MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIVOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH
TARMOQ MARKAZI**

“IQTISODIVOT”

YO'NALISHI

**“Zamonaviy makroiqtisodiy siyosat va
milliy iqtisodiyotning barqarorlashuvi”**

moduli bo'yicha

**O'QUV USLUBIVY
MAJMUA**

Toshkent - 2024

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 391-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: Vaxabov A.V.- O‘zMU, “Makroiqtisodiyot” kafedrasini mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Taqrizchi: Salimov B.T.- TDIU Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasini professori, iqtisodiyot fanlari doktori.

O‘quv-uslubiy majmua oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan (“__”
_____ 2023-yildagi _____ -sonli bayonoma)

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR.....	4
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI	15
III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	24
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	67
V. MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI	96
VI. GLOSSARIY	97
VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	110

I. ISHCHI DASTUR

KIRISH

Ushbu ishchi dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-14-son Farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-son Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish hamda amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejaları asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni O‘zbekistonning milliy tiklanishdan milliy yuksalish bosqichida oliy ta’lim vazifalari, ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning normativ-huquqiy hujjatlari, ilg‘or ta’lim texnologiyalari va pedagogik mahorat, ta’lim jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash, amaliy xorijiy til, tizimli tahlil va qaror qabul qilish asoslari, maxsus fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, global Internet tarmog‘i, multimedia tizimlaridan foydalanish va masofaviy o‘qitishning zamonaviy shakllarini qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari, dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning maxsus fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Modulning maqsadi va vazifalari

“Zamonaviy makroiqtisodiy siyosat va milliy iqtisodiyotning barqarorlashuvi” **modulining maqsadi:** pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kurs tinglovchilarini o‘quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini oshirish borasidagi ilg‘or xorijiy tajribalar, zamonaviy yondashuvlar, zamonaviy ta’lim va innovatsion

texnologiyalar sohasidagi ilg'or xorijiy tajribalar: modul-kredit tizimi, case study (keys stadi), masofali o'qitish, mahorat darslari, vebinar, evristik metodlarni o'zlashtirish, joriy etish, ta'lim amaliyotida qo'llash, ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish asosida ularning kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratini doimiy rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

“Zamonaviy makroiqtisodiy siyosat va milliy iqtisodiyotning barqarorlashuvi” modulining vazifalari:

- “Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)” yo'nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini uzluksiz yangilash va rivojlantirish mexanizmini yaratish;

- zamonaviy talablarga mos holda oliy ta'limning sifatini oshirish uchun zarur bo'lgan pedagoglarning kasbiy kompetentlik darajasini oshirish;

- pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali o'zlashtirilishini ta'minlash;

- maxsus fanlar sohasidagi o'qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarini o'zlashtirish;

- “Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)” yo'nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini ta'minlash.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimiga, ko'nikma, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

Maxsus fanlar bo'yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- iqtisodiy qonuniyatlarni o'rganishda agregat ko'rsatkichlardan foydalanib tahlil qilishni;

- iqtisodiy islohotlarning mazmuni, bosqichlari, ustuvor yo'nalishlari va bozor iqtisodiyotiga o'tish modellari xususiyatlarini;

- iqtisodiyotning globallashuvi jarayonlarini;

- barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash orqali makroiqtisodiy barqarorlikka erishish usullarini;

- makroiqtisodiy modellarni tuzishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishni;

- mutaxassislik fanlarini o'qitishdagi ilg'or xorijiy tajribalarni;

- makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning yangi nazariyalarini;

- milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish usullarini;

- xususiy sektorning barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi o'rni va unga ta'sir etish dastaklari;

- bozor munosabatlari shakllanishi sharoitida mamlakatimizda raqobat muhitini shakllantirishning huquqiy asoslari;

- pul-kredit siyosatini amalga oshirish negizida inflyatsiyani jilovlash yo'nalishlari;

- tashqi savdo aylanmasini mo'tadillashtirish va diversifikatsiyalash uslublari;

- davlat fiskal sisatini isloh etishning ustuvor yo‘nalishlari;
- to‘lov balansini muvozanatlashtirish uslublari;
- aholi kambag‘alligini aniqlash va uni qisqartirish yo‘nalishlari ***to‘g‘risidagi***

bilimlarga ega bo‘lishi lozim;

Tinglovchi:

- milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli davrda rivojlanish ssenariylarini tuzishni;
- makroiqtisodiy modellar yordamida barqaror iqtisodiy o‘shish omillarini aniqlash;
- milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish istiqbollari aniqlash;
- xususiylashtirishning xorij tajribasi va undan O‘zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlarini aniqlash;
- jahonda antimonopoly siyosatni amalga oshirishni boy, ilg‘or tajribasidan O‘zbekistonda sog‘lom raqobat muhitini shakllantirishda foydalanish;
- pul-kredit siyosati va inflyatsiya darajasini prognozlash;
- milliy iqtisodiyotdagi chuqur tarkibiy o‘zgarishlar qonuniyatlarini bilishga asoslanib uzoq istiqboldagi davrda milliy iqtisodiyotdaga tarkibiy o‘zgarishlarning modellarini ishlab chiqish;
- makroiqtisodiy indikatorlar asosida iqtisodiy jarayonlardagi o‘zgarishlarni tahlil qilish orqali makroiqtisodiy siyosatni takomillashtirishga oid mustaqil qarorlar qabul qilish;
- tijorat banklari faoliyatini tahlil qilish, bank xizmatlari va mahsulotlarining sifatini oshirishga oid ***ko‘nikmalarini egallashi lozim;***

Tinglovchi:

- zamonaviy va innovatsion ta‘lim texnologiyalari asosida o‘quv jarayonini “jonli”, ijodiy tashkil etish;
- innovatsion faoliyatni tashkil etish;
- iqtisodiy jarayonlarni taxlil qilishda iqtisodiy qonunlar, ilmiy tushunchalarni (kategoriyalarni) yechimlar qabul qilishda ishlata olish;
- iqtisodiy jarayonlarni makroiqtisodiy tahlil qilish va prognozlash;
- davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi optimal darajasini aniqlash va davlat mulkini xususiylashtirishni mamlakatimizning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirishga oid;
- ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan tovar va xizmatlar bahosini erkinlashtirish borasida optimal qarorlarni ishlab chiqish;
- innovatsion rivojlanish jarayonlarini tadqiq qilishda makroiqtisodiy modellar tizimidan foydalanish;
- iqtisodiy ko‘rsatkichlarni prognozlashda maxsus kompyuter dasturlaridan foydalanish;
- O‘zbekiston Respublikasi makroiqtisodiy siyosatining maqsadi, vazifalari, xususiyatlarini bilish va makroiqtisodiy darajada fikrlash asosida tegishli qarorlar qabul qilish ***malakalarini egallashi kerak;***

Tinglovchi:

- innovator, tyutor, moderator va fasililatorlik faoliyatini samarali amalga oshirish;

- jahondagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni chuqur tahlil etish va olingan xulosalarini keng jamoatchilikga tushuntirib berish, iqtisodiyot sohasida tayyorlanayotgan mutaxassislarni o'qitish jarayoni nazariya va amaliyotning uzviy bog'liqligini ta'minlash;

- makroiqtisodiy indikatorlarni tizimli ravishda tahlil qilish va ularni keng jamoatchilikga tushuntira olish;

- makroiqtisodiy tahlillar asosida milliy, tarmoqlar, mintaqalar va korxonalar rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish;

- tuzilgan makroiqtisodiy modellarni tarmoqlar va korxonalar faoliyatida qo'llash;

- mamlakatda amalga oshirilayotgan maqsadli xususiylashtirish dasturlarining holatini baholash va uni jadallashtirish yo'nalishlari to'g'risida ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish;

- tabiiy monopoliyalarning faoliyatini nazorat qilish va sog'lom raqobat muhitini monitoring qilish borasidagi chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

- milliy iqtisodiyot va mintaqalarning o'rta va uzoq muddatli davrga mo'ljallangan iqtisodiy rivojlanishining muqobil ssenariylarini ishlab chiqish va qo'llash;

- milliy iqtisodiyotning tarmoq va sohalari faoliyatini tahlil qilish, eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha maqsadli dasturlar ishlab chiqish, tarmoqlar, sohalarni innovatsion va strategik rivojlantirish *kompetensiyalarini egallashi lozim.*

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

“Zamonaviy makroiqtisodiy siyosat va milliy iqtisodiyotning barqarorlashuvi” modulini o'qitish jarayonida quyidagi innovatsion ta'lim shakllari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida interfaol ma'ruzalarni tashkil etish;

- virtual amaliy mashg'ulotlar jarayonida keys, loyiha va assisment texnologiyalarini qo'llash nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

“Zamonaviy makroiqtisodiy siyosat va milliy iqtisodiyotning barqarorlashuvi” moduli bo'yicha mashg'ulotlar o'quv rejasidagi “Ilg'or ta'lim texnologiyalari va pedagogik mahorat” o'quv modulining “Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik” submodullari, “Ta'lim jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash”, “Amaliy xorijiy til”, “Tizimli tahlil va qaror qabul qilish asoslari”, “Maxsus fanlar” o'quv modullari bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar Zamonaviy makroiqtisodiy siyosat va

milliy iqtisodiyotning barqarorlashuvini tahlil etish va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti:

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat					
		Hammasi	Auditoriya o'quv yuklamasi				Mustaqil ta'lim
			jami	jumladan			
				Nazariy mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot	Ko'chma mashg'ulot	
1.	Makroiqtisodiy siyosat va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash yo'nalishlari			2	2	–	
2.	Kichik biznes va xususiy sektorning rivojlanishi			2	2	–	
3.	Monopoliyaga qarshi siyosat va raqobat muhitining rivojlanishi			2	2	2	
4.	Milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashda fiskal siyosatning o'rni.			2	2	2	
5.	Pul-kredit siyosati va inflyatsiyani jilovlash muammolari			2	2	2	
	Jami:	26	26	10	10	6	

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Makroiqtisodiy siyosat va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash yo'nalishlari

Makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillar. O'zbekiston Respublikasida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy o'sish dinamikasi. Respublikada makroiqtisodiy barqarorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar. O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish yondashuvlaridan foydalanish. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining barqaror rivojlanish ko'rsatkichlarini prognozlash. Mamlakatning iqtisodiy salohiyati. O'zbekistonning iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanishi va iqtisodiy o'sish muammolari. Iqtisodiy o'sish samaradorligini ta'minlashda tabiiy, moddiy va moliyaviy resurslardan tejab-tergab foydalanishning ahamiyati.

2-mavzu: Kichik biznes va xususiy sektorning rivojlanishi

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va huquqiy himoya qilishning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiy tizim tushunchasi. Iqtisodiy tizim modellari: an'anaviy iqtisodiyot, ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyoti, bozor iqtisodiyoti. Bozor iqtisodiyotining bosqichlari: erkin raqobatga asoslangan va hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti. Iqtisodiyotni isloh qilishda mulkchilikning o'rni. Mulchilik shakllarini o'zgartirish usullari: milliy lashtirish, davlat tasarrufidan

chiqarish va xususiylashtirish. Davlat mulkini xususiylashtirishning usullari. O'zbekiston Respublikasida mulkchilikni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini amalga oshirish bosqichlari.

3-mavzu: Monopoliyaga qarshi siyosat va raqobat muhitining rivojlanishi.

Raqobatning mohiyati va obyektiv asoslari. Raqobat kurashining zamonaviy shakllari: mahsulot sifatini oshirish, mahsulotni yangilash, xizmat sifati, reklama, servis, marketing va h.k. Davlatning monopoliyaga qarshi tadbirlari. Rivojlangan mamlakatlarda monopoliyaga qarshi siyosat borasidagi tajribalar. Monopoliyaga qarshi qonunchilik. O'zbekistonda raqobat muhitining kuchaytirish borasidagi chora-tadbirlar. Monopoliyaga qarshi qonunchilikning shakllanishi. Monopolistik korxonalarini tartibga solish usullari. Monopoliyaga qarshi siyosatning natijalari.

4-mavzu: Milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashda fiskal siyosatning o'rni.

Iqtisodiy barqarorlikka erishishda moliya tizimi va moliyaviy siyosat ahamiyati. Moliya tizimining bo'g'inlari. Davlat byudjetining moliyaviy resurslarni shakllantirishdagi ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining tuzilishi. Davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari tarkibi hamda ularning egri chizig'i. Byudjet taqchilligi va davlat qarzlari, ularning iqtisodiyotga ta'siri. Laffer egri chizig'i. Soliq yuki va uning darajasini aniqlash. Soliq yukining taqsimlanishi. Moliyaviy siyosat. Fiskal (soliq-byudjet) siyosat. O'zbekistonda byudjet soliq tizimining soddalashtirilishi va unifikasiya qilinishi.

5-mavzu: Pul-kredit siyosati va inflyatsiyani jilovlash muammolari

Iqtisodiyotning siklli rivojlanishida pul-kredit va valyuta tizimlarining o'zgarishi. Pul muomalasi. Pul tizimi va uning tarkibiy qismlari. Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlash va unga ta'sir etuvchi omillar. Pul muomalasi qonunlari. $MV=PQ$ tenglamasining amal qilishi. Inflyasiya darajasi va sur'ati. Inflyasiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari, Davlatning inflyasiyaga qarshi siyosati. Foiz stavkasi va uning darajasini aniqlovchi omillar. Kredit-pul tizimini davlat tomonidan tartibga solish. Inflyasiyaga qarshi aniq o'ylangan siyosat o'tkazish. Pul miqdorining o'sishini tovarlar va xizmatlar miqdorining tegishli darajada o'sishi bilan bog'lab olib borish.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg'ulot:

Makroiqtisodiy siyosat va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash yo'nalishlari

Makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillar. O'zbekiston Respublikasida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy o'sish dinamikasi. Respublikada makroiqtisodiy barqarorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar. O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish yondashuvlaridan foydalanish. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining barqaror rivojlanish ko'rsatkichlarini prognozlash. Mamlakatning iqtisodiy salohiyati. O'zbekistonning iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanishi va iqtisodiy o'sish muammolari. Iqtisodiy o'sish samaradorligini ta'minlashda tabiiy, moddiy va moliyaviy resurslardan tejab-tergab foydalanishning ahamiyati.

2-amaliy mashg'ulot:

Kichik biznes va xususiy sektorning rivojlanishi

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va huquqiy himoya qilishning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiy tizim tushunchasi. Iqtisodiy tizim modellari: an'anaviy iqtisodiyot, ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyoti, bozor iqtisodiyoti. Bozor iqtisodiyotining bosqichlari: erkin raqobatga asoslangan va hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti. Iqtisodiyotni isloh qilishda mulkchilikning o'rni. Mulkchilik shakllarini o'zgartirish usullari: milliy lashtirish, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish. Davlat mulkini xususiylashtirishning usullari. O'zbekiston Respublikasida mulkchilikni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini amalga oshirish bosqichlari.

3-amaliy mashg'ulot:

Monopoliyaga qarshi siyosat va raqobat muhitining rivojlanishi.

Raqobatning mohiyati va obyektiv asoslari. Raqobat kurashining zamonaviy shakllari: mahsulot sifatini oshirish, mahsulotni yangilash, xizmat sifati, reklama, servis, marketing va h.k. Davlatning monopoliyaga qarshi tadbirlari. Rivojlangan mamlakatlarda monopoliyaga qarshi siyosat borasidagi tajribalar. Monopoliyaga qarshi qonunchilik. O'zbekistonda raqobat muhitining kuchaytirish borasidagi chora-tadbirlar. Monopoliyaga qarshi qonunchilikning shakllanishi. Monopolistik korxonalarini tartibga solish usullari. Monopoliyaga qarshi siyosatning natijalari.

4-amaliy mashg'ulot:

Milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashda fiskal siyosatning o'rni.

Iqtisodiy barqarorlikka erishishda moliya tizimi va moliyaviy siyosat ahamiyati. Moliya tizimining bo'g'inlari. Davlat byudjetining moliyaviy resurslarni shakllantirishdagi ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining tuzilishi. Davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari tarkibi hamda ularning egri chizig'i. Byudjet taqchilligi va davlat qarzlari, ularning iqtisodiyotga ta'siri. Laffer egri chizig'i. Soliq yuki va uning darajasini aniqlash. Soliq yukining taqsimlanishi. Moliyaviy siyosat. Fiskal (soliq-byudjet) siyosat. O'zbekistonda byudjet soliq tizimining soddalashtirilishi va unifikatsiya qilinishi.

5-amaliy mashg'ulot:

Pul-kredit siyosati va inflyatsiyani jilovlash muammolari

Iqtisodiyotning sikllik rivojlanishida pul-kredit va valyuta tizimlarining o'zgarishi. Pul muomalasi. Pul tizimi va uning tarkibiy qismlari. Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlash va unga ta'sir etuvchi omillar. Pul muomalasi qonunlari. $MV=PQ$ tenglamasining amal qilishi. Inflyatsiya darajasi va sur'ati. Inflyatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari, Davlatning inflyatsiyaga qarshi siyosati. Foiz stavkasi va uning darajasini aniqlovchi omillar. Kredit-pul tizimini davlat tomonidan tartibga solish. Inflyatsiyaga qarshi aniq o'ylangan siyosat o'tkazish. Pul miqdorining o'sishini tovarlar va xizmatlar miqdorining tegishli darajada o'sishi bilan bog'lab olib borish.

KO'CHMA MASHG'ULOT

1-ko'chma mashg'ulot:

Monopoliyaga qarshi siyosat va raqobat muhitining rivojlanishi.

Raqobatning mohiyati va obyektiv asoslari. Raqobat kurashining zamonaviy

shakllari: mahsulot sifatini oshirish, mahsulotni yangilash, xizmat sifati, reklama, servis, marketing va h.k. Davlatning monopoliyaga qarshi tadbirlari. Rivojlangan mamlakatlarda monopoliyaga qarshi siyosat borasidagi tajribalar. Monopoliyaga qarshi qonunchilik. O'zbekistonda raqobat muhitining kuchaytirish borasidagi chora-tadbirlar. Monopoliyaga qarshi qonunchilikning shakllanishi. Monopolistik korxonalarini tartibga solish usullari. Monopoliyaga qarshi siyosatning natijalari.

2-ko'chma mashg'ulot:

Milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashda fiskal siyosatning o'rni.

Iqtisodiy barqarorlikka erishishda moliya tizimi va moliyaviy siyosat ahamiyati. Moliya tizimining bo'g'inlari. Davlat byudjetining moliyaviy resurslarni shakllantirishdagi ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining tuzilishi. Davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari tarkibi hamda ularning egri chizig'i. Byudjet taqchilligi va davlat qarzlari, ularning iqtisodiyotga ta'siri. Laffer egri chizig'i. Soliq yuki va uning darajasini aniqlash. Soliq yukining taqsimlanishi. Moliyaviy siyosat. Fiskal (soliq-byudjet) siyosat. O'zbekistonda byudjet soliq tizimining soddalashtirilishi va unifikatsiya qilinishi.

3-ko'chma mashg'ulot:

Pul-kredit siyosati va inflyatsiyani jilovlash muammolari

Iqtisodiyotning siklli rivojlanishida pul-kredit va valyuta tizimlarining o'zgarishi. Pul muomalasi. Pul tizimi va uning tarkibiy qismlari. Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlash va unga ta'sir etuvchi omillar. Pul muomalasi qonunlari. $MV=PQ$ tenglamasining amal qilishi. Inflyatsiya darajasi va sur'ati. Inflyatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari, Davlatning inflyatsiyaga qarshi siyosati. Foiz stavkasi va uning darajasini aniqlovchi omillar. Kredit-pul tizimini davlat tomonidan tartibga solish. Inflyatsiyaga qarshi aniq o'ylangan siyosat o'tkazish. Pul miqdorining o'sishini tovarlar va xizmatlar miqdorining tegishli darajada o'sishi bilan bog'lab olib borish.

O'QITISH SHAKLLARI

Ushbu modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

ADABIYOTLAR RO'YXATI

Asosiy adabiyotlar

1. Gregory N. Mankiw. Macroeconomics. 7 th edition. Harvard University. NY.: Worth Publishers, 2010
2. Ishmuhamedov A.E., Djumayev Z.A, Jumayev Q. X. Makroiqtisodiyot: O'quv qo'llanma. T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. – 192 bet.

3. Vaxabov A.V., Butaboyev M.T. Makroiqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma. – Farg‘ona: “Navro‘z” nashriyoti, 2019. – 319 bet.
4. Вымятина, Ю.В. Макроэкономика в 2 ч. Часть 1: учебник и практикум для бакалавриата и магистратуры/ Ю.В.Вымятина, К.Ю.Борисов, М.А.Пахнин. –Москва: Издательство Юрайт, 2017. – 294 с.
5. Вымятина, Ю.В. Макроэкономика в 2 ч. Часть 2: учебник и практикум для бакалавриата и магистратуры/ Ю.В.Вымятина, К.Ю.Борисов, М.А.Пахнин. – Москва: Издательство Юрайт, 2018. – 198 с.
6. Розанова Н.М. Макроэкономика. Практикум: учебное пособие для магистратуры/ Н.М.Розанова. –Москва: Издательство Юрайт, 2019. 496 с.
7. Сергей Капканщиков: Макроэкономика. Учебник; Издательство Кнорус, 2023 г. ; Серия Бакалавриат. · 406 с.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 31.12.2021 yildagi O‘RQ-742-sonli Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muxitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 01.08.2018 yildagi PF-5495-sonli Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Soliq va bojxona imtiyozlari berilishini yanada tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 27.06.2019 yildagi PF-5755-sonli Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi 12.05.2020 yildagi PF-5992-sonli Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 10.07.2019 yildagi PQ-4389-sonli Qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019 – 2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 04.10.2019 yildagi PQ-4477-sonli Qarori
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2020-2022 yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 09.01.2020 yildagi PQ-4563 -sonli Qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 25.01.2020. <https://uza.uz/>
10. Mirziyoyev Sh.M. Investorlar uchun qulay va jozibador sharoit yaratishga qaratilgan amaliy ishlarimizni yanada jadallashtiramiz. Yangi O‘zbekiston

№60 (582), 2022 yil 22 mart soni.

11. Abel A.V., Bernanke B.S., Croushore D. Macroeconomics. 8 th edition. USA: Amazon, 2013.
12. Бланшар О. Макроэкономика: учебник / О.Бланшар; науч.ред.пер. Л.Л.Любимов; Гос. ун-т - Высшей школы экономики, 2010. -671с.
13. Вечканов Г.С., Вечканова Г.Р. Макроэкономика; Учебник для вузов. СПб.: Питер, 2009. -350 с.
14. Самуэльсон, Пол Э., Нордхаус, Вильям Д. Макроэкономика. Учебное пособие. М.: ООО «И.Д. Вильямс», 2009. -592 с.
15. Абель Э., Бернанке Б. Макроэкономика. 5-е изд. -СПб: Питер, 2008. - 768 с.
16. Розанова, Н.М. Макроэкономика. Продвинутый курс в 2 ч. Часть 1: учебник для магистратуры/ Н.М.Розанова. – 2-е изд., перераб. и доп. – Москва: Издательство Юрайт, 2017. – 283 с.
17. Ажемўғли. Дарон, Робинсон Жеймс А. Мамлакатлар таназзули сабаблари: кудрат, фаровонлик в акамбағаллик манбаълари. Инглиз тилидан таржима. – Тошкент.: “Ofset-print” МЧЖ. “Nihol” нашриёти, 2021. 672 бет.
18. Pul-kredit siyosatining 2022 yil va 2023-2024 yillar davriga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2021 yil. 110 bet.
19. Vaxabov A.V. Xajibakiyev Sh.X. Yashil iqtisodiyot. Darslik. - Toshkent.: “Universitet” 2020. – 296 b.
20. Vaxabov A.V. Xajibakiyev Sh.X. Jahonda “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish modellari va uni O‘zbekistonda amalga oshirish xususiyatlari. Monografiya. - Toshkent.: “Universitet” 2020, 278 b.
21. Vaxabov A.V., Vaxtiyorov B.B. Aholining ijtimoiy jihatdan muhoj qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish tizimining manzilliligini kuchaytirish mexanizmini takomillashtirish. Monografiya. Toshkent.: “Universitet” 2020. 156 bet.
22. Пузииков В.В., Вахабов А.В. и др. Современные особенности влияния теневой экономики на постсоветском пространстве и пкти смегчения ее последствий. Коллективная монография. - Т.: “Университет”, 2021 - 372 с.
23. Бюджет для граждан / Министерство финансов РУз. www.mf.uz
24. Вахабов А.В., Разыкова Г.Х., Хажибакиев Ш.Х. Иностраннные инвестиции и модернизatsiya natsionalной экономики / Под ред. д.э.н., проф. А.В.Вахабова – Т.: Молия, 2011. – 300 с.
25. Вахабов А.В., Разыкова Г.Х., Модернизatsiya экономики. Учебное пособие. Тошкент: Iqtisod-Moliya. 2014. – С. 200.
26. Вахабов А.В., Иминов Т.К., Тешабоев Т.З., Бутабоев М.Т. “Зелёная экономика”, как основа устойчивого развития (Экономический рост без ущерба для экологии). Монография. Т.: “Aloqachi”, 2019, 480 стр.
27. Pul-kredit siyosatining 2023 yil va 2024-2025 yillar davriga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari

https://cbu.uz/upload/medialibrary/04f/xz40kvjhrad5rrk7otjgimsys6pbb5ud/Asosiy_yunalishlar_2022.pdf

28. Рекомендации для национальной стратегии по прямым иностранным инвестициям с дорожной картой для Узбекистана. Новые источники роста. Июнь 2022 г. Группа Всемирного банка.
documents1.worldbank.org/curated/en/099515108112240110/pdf/IDU0efe43a120f8bd0423c08c570d59f97ae3785.pdf
29. На пути к процветающему и инклюзивному будущему. Узбекистан: вторая систематическая диагностика страны. Апрель 2022 г.
<https://documents1.worldbank.org/curated/en/099242105192220964/pdf/IDU0758ddc1d080600405008fee0f9bb83305e7d.pdf>
30. Добровольный национальный обзор о реализации национальных целей и задач устойчивого развития Узбекистана до 2030 года.
https://api.mf.uz/media/document_files/02_05_2023ru.pdf
31. **World Development Report 2023: Migrants, Refugees, and Societies.** Washington, DC: World Bank. © World Bank.
<https://www.worldbank.org/en/publication/wdr2023>
32. **World Investment Report 2023. Investing in sustainable energy for all.**
<https://unctad.org/publication/world-investment-report-2023>
33. 2023 yil uchun ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi xalqaro reyting va indekslar ko'rsatkichlari dinamikasi.
https://api.mf.uz/media/document_files/indekslar.pdf

Internet resurslar

1. www.mineconomy.uz
2. www.mf.uz
3. www.cbu.uz
4. www.stat.uz
5. www.worldbank.org
6. www.imf.org
7. www.oecd.org
8. www.wto.org
9. www.cisstat.com
10. www.undp.org
11. www.ilo.org
12. www.adb.org

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

“SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	• кучли томонлари
W – (weakness)	• заиф, кучсиз томонлари
O – (opportunity)	• имкониятлари
T – (threat)	• тўсиқлар

☞“Makroiqtisodiy siyosat va barqaror iqtisodiy o‘shish strategiyalari” g‘oyasini “SWOT – tahlil” asosida tahlil qilish.

	<i>Tahlil tarkiblari</i>	<i>Natijalarni amalga oshirishning xususiyatlari</i>
S	Kuchli tomonlari (tashkillashtirishning ichki manbalari)	- barqaror rivojlanishning asosiy mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi; - yangi loyihalar asosi hisoblanadi; - to‘siqlarni yengib o‘tishining yo‘li bo‘lishi mumkin.
W	Kuchsiz tomonlari (tashkillashtirishning ichki muammolari)	- tashkillashtirish faoliyati aynan shularni yengib o‘tishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim; - yangi loyihalar uchun eng muhim maqsad hisoblanadi; - rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda albatta hisobga olinishi zarur
O	Imkoniyatlar (tashqaridan)	- moliyalashtirish va qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha ko‘rsatkichi yoki tashqi manba bo‘lib xizmat qiladi, - ular tashkillashtirishning maqsadi bilan yoki qanchalik murosaga kelishishi bilan qanchalik mos kelishini hisobga olish zarur bo‘ladi; - yangi loyihalarning asosi yoxud hamkorlikni izlash manbasi bo‘lishi mumkin.
T	Xavflar (tashqaridan)	- Har bir yangi loyihada hisobga olinishi zarur; - ularni yengib o‘tish yoki betaraf etish yo‘llari ishlab chiqilishi kerak; - ba’zida mantiqqa mos kelmaydigan “raqiblar” “ittifoqchilarga” aylanishi bo‘lishi mumkin.

Xulosalash» (Rezyume, Veyer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati

shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. "Xulosalash" metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-o'qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;



har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlar bilan to'ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

Namuna:

Makroiqtisodiy barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash yo'nalishlari					
Makroko'lamdagi muvozanatni ta'minlash		Bozor iqtisodiyotiga o'tishning milliy modellari		Xalqaro moliya institutlari	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

“Keys-stadi” metodi

“Keys-stadi” - inglizcha so'z bo'lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi.

Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'rganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda

ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

Masalan, mamlakatimizdagi o‘shish sur‘atining 9% darajasida YaIMni 2 baravar oshirish uchun 7,7 yil talab etiladi (70:9). Xolbuki, iqtisodiy o‘shishning 2000 yildagi 4,0% darajasida bu ko‘rsatkichga 17,5 yilda (70:4) erishish mumkin edi. Keyingi yillarda iqtisodiy o‘shish sur‘atining yanada oshirilishi bu muddatning ahamiyatli ravishda qisqarishiga olib keladi.

Ijtimoiy mahsulotning o‘shish sur‘ati bilan ishlab chiqarish omillari miqdorining o‘zgarishi o‘rtasidagi nisbat iqtisodiy o‘shishning ekstensiv yoki intensiv turlarini belgilab beradi. Bu turlari bo‘yicha izoh keltiring.

Кейсни бажариш босқчилари ва топшириқлар:

- Кейсдаги муаммони келтириб чиқарган асосий сабабларни белгилаш(индивидуал ва кичик гуруҳда).
- иқтисодий ўсишнинг экстенсив ёки интенсив турларини изоҳи келтирилган кетма-кетлигини белгилаш (жуфтликлардаги иш).

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

Namuna.

Fikr: "Iqtisodiy o'sish natijasida milliy iqtisodiyot ishlab chiqarish imkoniyatlarining kengayishi".

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.


"Assesment" metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

"Assesment" lardan ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Namuna. Har bir katakdagi to'g'ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



"Tushunchalar tahlili" metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;

- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna: “Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo‘shimcha ma’lumot
Sikllarning asosiy turlari	Kitchin sikli 2–4 yil, Juglar sikli 7-12 yil, Kuznets sikli 16-25 yil, Kondratev sikli 40-60 yil, Forrester sikli 200 yil, Toffler sikli 1000-2000 yil	
Monetar konsepsiya	Foiz stavkasi va valyuta kursi o‘tasida bog‘liqlikni aks etgan	
Optimal valyuta hududlar nazariyasi	Jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan integratsiya jarayonlari XVF mutaxassisleri Robert Mandell va Markus Fleming tomonidan 1960 – yillarda yaratilgan optimal valyuta hududlar nazariyasiga asoslangan	
Jahon valyuta tizimi evolyutsiyasi	1867–1913 yillar Parij valyuta tizimi, 1922– 1936 Genuya valyuta tizimi, 1944 – 1976 Bretton Vuds valyuta tizimi, 1976-hozirga qadar Yamayka valyuta tizimi	
Xalqaro valyuta fondi (XVF)	Moliyaviy sohasida xalqaro hamkorlikni ta’minlovchi tashkilot hisoblanadi va hozirgi paytda 183 a’zoldan iborat. XVF Jahon banki bilan bir vaqtda 1945 yilda Bretton Vuds konferensiyasi qarori bilan tashkil etilgan	

Izoh: Ikkinchi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo‘shimcha ma’lumot glossariyda keltirilgan.


Venn Diagrammasi metodi

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a’zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

Namuna: O‘zbekistonning xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorligini o‘ziga xos xususiyatlarida mobil ilova ma’lumotlarini saqlash turlari bo‘yicha



“Blits-o‘yin” metodi

Metodning maqsadi: o‘quvchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maqsadida qo‘llash samarali natijalarni beradi. **Metodni amalga oshirish bosqichlari:**

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya‘ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. Shundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi «yakka baho» kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh a‘zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta‘sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishonirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini “guruh bahosi” bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma-ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va o‘quvchilardan bu javoblarni “to‘g‘ri javob” bo‘limiga yozish so‘raladi.

4. “To‘g‘ri javob” bo‘limida berilgan raqamlardan “yakka baho” bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bulsa “0”, mos kelsa “1” ball quyish so‘raladi. Shundan so‘ng “yakka xato” bo‘limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo‘shib chiqilib, umumiy yig‘indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda “to‘g‘ri javob” va “guruh bahosi” o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar “guruh xatosi” bo‘limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo‘shiladi va umumiy yig‘indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiy yig‘indi bo‘yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

“Iqtisodiy islohotlar tamoillari, strategiyasi, bosqichlari va yo‘nalishlari” bo‘yicha tushuncha bering. O‘zingizni tekshirib ko‘ring!

Harakatlar mazmuni	Yakka baho	Yakka xato	To‘g‘ri javob	Guruh bahosi	Guruh xatosi
Iqtisodiy islohotlar strategiyasi bosqichlari					
Makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash					
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va himoya qilishni ta‘minlash institutlari					
Hududlarning rivojlantirish va investitsiyaviy jozibadorligini baholash					
Tadbirkorlik rivojlanishi reytingi					

“Insert” metodi

☞ **Metodning maqsadi:** Mazkur metod o‘quvchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod o‘quvchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta‘lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta‘lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – tanish ma‘lumot.			
“?” – mazkur ma‘lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma‘lumot men uchun yangilik.			
“– ” bu fikr yoki mazkur ma‘lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta‘lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma‘lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

Ta‘lim texnologiyasi modeli va texnologik xaritasi

☞ **O‘quv mashg‘ulotida ta‘lim texnologiyasi modeli va texnologik xaritasini ishlab chiqish.**
Eslatma:topshiriqni bajarishda yo‘riqnomaga amal qiling.

YO‘RIQNOMA

Aniq fan va mavzu bo‘yicha mashg‘ulotning *ta’lim modeli* jadval ko‘rinishida bo‘lib, unda quyidagilar ko‘rsatiladi:

- *dastlabki ma’lumotlar*: o‘quv mavzusi, vaqti, talabalar soni;
- *shakl* (ma’ruza, seminar va boshq.) va *ko‘rinishi* (masalan, muammoli ma’ruza va boshq.), o‘quv mashg‘uloti rejasi/tuzilishi, uning maqsadi, o‘quv faoliyatining ko‘zlanayotgan natijalari, pedagogik vazifalari;
- *tanlangan ta’lim modeli*: *usullar, shakllar va o‘qitish vositalari*;
- *ta’lim berish sharoiti*: maxsus jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo‘ljallangan xonalar;
- *monitoring va baholashga* asoslangan qaytar aloqaning yo‘l va vositalari: nazorat turi (yozma va og‘zaki), nazorat shakli (tezkor-so‘rov, test olish, taqdimot, o‘quv topshiriqlari va boshq.).

O‘quv mashg‘ulotining texnologiya xaritasi uch qatorni o‘z ichiga olib, 1,5-2 varaqda jadval ko‘rinishida bajariladi: (1) o‘quv mashg‘uloti bosqichlari va vaqti; (2) ta’lim beruvchi faoliyati; (3) ta’lim oluvchi faoliyati.

Ilova. O‘quv jarayonining tashkiliy - didaktik vazifasini bajaradi: o‘quv/mustaqil ish uchun savol va topshiriqlarni, uni baholash mezonlarini, o‘quv ish jarayonida talabalar amal qilishi lozim bo‘lgan qoidalar, ta’lim beruvchi foydalanadigan tayanch yozmalar, shuningdek chizma, jadval, slaydlar va boshqa ko‘rgazmali materiallar, rejalashtirilgan maqsadlarga erishishni nazorat qilish uchun topshiriqlar (testlar, savollar, topshiriqlar va mashqlar).

Bu yerda taqdim etilayotgan materiallar chegaralanmaydi. Faqat ular katta hajmli, yaxshi tuzilmaga keltirilgan va grafikli chizmalarda rasmiylashtirilgan bo‘lishi kerak.

O‘quv mashg‘ulotida ta’lim texnologiyasi modeli

Mavzu (raqami)(nomi).....

<i>Vaqt: ...soat</i>	<i>Talabalar soni: ...</i>
<i>O‘quv mashg‘ulotining shakli va turi</i>	Ma’ruza (axborotli/birlashgan dars va boshq..), seminar (bilim va ko‘nikmalarni chuqurlashtirish bo‘yicha), amaliy mashg‘ulot
<i>Ma’ruza rejasi / o‘quv mashg‘ulotining tuzilishi</i>	1. ... 2. ...
<i>O‘quv mashg‘uloti maqsadi:</i>	Shakllantirish / bilim va ko‘nikmalarni chuqurlashtirish
<i>Pedagogik vazifalar:</i> ... bilan tanishtirish; ... tasnifini berish; ... tushuntirish; ... ochib berish va boshq.	<i>O‘quv faoliyati natijalari:</i> ... ko‘rsatadilar; ... tasniflaydilar; ... aytib beradilar; ... tartibli ravishda ochib beradilar
<i>O‘qitish metodlari</i>	Ma’ruza, insert, aqliy hujum va boshq.
<i>O‘quv faoliyatini tashkillashtirish shakllari</i>	Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash
<i>O‘qitish vositalari</i>	Ma’ruza matni, texnika vositalari va boshq.
<i>O‘qitish sharoiti</i>	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo‘ljallangan xonalar
<i>Qaytar aloqaning yo‘l va vositalari</i>	Og‘zaki nazorat: tezkor-so‘rov va boshq. Yozma nazorat: referat, test va boshq.

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat	
	ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchilar
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (daq.)	1.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mashg'ulot rejasi bilan tanishtiradi. 1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni; mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro'yxatini aytadi. 1.3. O'quv mashg'ulotida o'quv ishlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi	Tinglaydilar, yozib oladilar. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar.
2-bosqich. Asosiy (daq.)	2.1. Tezkor-so'rov / savol-javob/ aqliy hujum orqali bilimlarni faollashtiradi. 2.2. Ma'ruza/ seminar/ amaliy mashg'ulotning rejasi va tuzilishiga muvofiq ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha harakatlar tartibini bayon etadi	Javob beradilar Yozadilar. Guruhlarda ishlaydilar, taqdimot qiladilar va bosh.
3-bosqich. Yakuniy (daq.)	3.1. Mavzu bo'yicha yakunlaydi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tiborini qaratadi. 3.2. Guruhlar ishini baholaydilar, o'quv mashg'ulotining maqsadga erishish darajasini tahlil qiladi. 3.3. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi va uning baholash mezonlarini yetkazadi .	O'z-o'zini, o'zaro baholashni o'tkazadilar. Savol beradilar Topshiriqni yozadilar

III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1- MAVZU. MAKROIQTISODIY SIYOSAT VA BARQAROR IQTISODIY O‘SISH TA‘MINLASH YO‘NALISHLARI

Reja:

1. Iqtisodiy o‘shning mazmuni, turlari va ko‘rsatkichlari.
2. Iqtisodiy o‘shning omillari.
3. O‘zbekistonda iqtisodiy o‘shning yuqori sur‘atlarini ta‘minlash omillari.

🔗 Tayanch iboralar:

Zamonaviy ta‘lim, ilg‘or tajribalar, modul, modulli o‘quv axborotlar, modul bloklar, modulli-kredit, ECTS kreditlari ECTS o‘quv rejalari, Bolonya deklaratsiyasi, talabaning mehnat sarfi, kreditlar miqdori, transferancy, aqreement, Credits-hots, Credits-Post, transcript, syllabus, axborot paketi, o‘tish koeffitsiyenti, blended learning (aralash o‘qitish), masofali o‘qitish, mahorat darslari, vebinar, evristik metod, moderator, tyutor, edvayzer, fasilitator.

1.1. Iqtisodiy o‘shning mazmuni, turlari va ko‘rsatkichlari.

Milliy iqtisodiyotda iqtisodiy rivojlanish qiyin aniqlanadigan jarayon bo‘lganligi sababli uning mezonlaridan biri bo‘lgan iqtisodiy o‘sh ko‘proq tahlil qilinadi.

Iqtisodiy o‘sh bevosita yalpi ichki mahsulot hajmining mutlaq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari har bir birligi hisobiga o‘shishi, sifatining yaxshilanishi va tarkibining takomillashuvida ifodalanadi.

Iqtisodiy o‘shni YaIM mutlaq hajmining ortishi orqali yoki aholi jon boshiga real YaIM miqdorining ortishi orqali o‘lchash buning qanday maqsadda amalga oshirilayotganiga bog‘liq bo‘ladi. Odatda biron bir mamlakat iqtisodiy o‘shini YaIM mutlaq hajmining ortishi orqali o‘lchash uning iqtisodiy salohiyatini baholashda, aholi jon boshiga real YaIM miqdorining ortishi orqali o‘lchash esa mamlakatdagi turmush darajasini taqqoslashda qo‘llaniladi¹.

Mamlakatning iqtisodiy o‘sh sur‘atini tavsiflaydigan mazkur ko‘rsatkichlar (real YaIM va aholi jon boshiga real YaIMning o‘shishi) miqdoriy ko‘rsatkichlar bo‘lib, ular birinchidan, mahsulot sifatining oshishini to‘liq hisobga olmaydi va shu sababli farovonlikning haqiqiy o‘shini to‘liq tavsiflab berolmaydi; ikkinchidan, real YaIM va aholi jon boshiga YaIMning o‘shishi bo‘sh vaqtning sezilarli ko‘payishini aks ettirmaydi va farovonlik real darajasining pasaytirib ko‘rsatilishiga olib keladi; uchinchidan, iqtisodiy o‘shni miqdoriy hisoblash boshqa tomondan uning atrof-muhitga va inson hayotiga salbiy ta‘sirini hisobga olmaydi. Shunga ko‘ra, iqtisodiy o‘shning barcha tavsifi yillik o‘sh sur‘atlarining foizdagi o‘lchovida to‘liq o‘z ifodasini topadi:

$$\tilde{YC} = \frac{YIM_{\text{жорий давр}} - YIM_{\text{базис давр}}}{YIM_{\text{базис давр}}} \times 100\% ,$$

bu yerda:

O‘S – iqtisodiy o‘sh sur‘ati, foizda;

YaIM_{bazis davr} – taqqoslanayotgan davr (yil)dagi real YaIM hajmi;


YaIM_{joriy davr} – joriy davr (yil)dagi real YaIM hajmi.

¹ Dimitrios Asteriou, Stephen G. Hall., Applied econometrics (second edition). USA, 2011, English.

Aytaylik, 2014 yildagi milliy ishlab chiqarish hajmi (Y_{2014}) 2000 yildagi (Y_{2000})ga nisbatan o'sdi. Bu o'sish o'z navbatida milliy ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'ining ham kengayishiga olib keladi (1-chizma).

1-chizma

Iqtisodiy o'sish natijasida milliy iqtisodiyot ishlab chiqarish imkoniyatlarining kengayishi



Chizmadan ko'rinadiki, iqtisodiy o'sish natijasida ishlab chiqarilgan ijtimoiy mahsulot miqdori ortadi, bu esa aholi turmush farovonligining oshishiga olib keladi. Iqtisodiyot mavjud ehtiyojlarni yanada to'laroq qondirish imkoniga ega bo'ladi.

Iqtisodiy o'sishning ahamiyati to'g'risida gapirilganda uning darajasini ham e'tiborda tutish lozim. Iqtisodiy o'sish sur'atlarining ahamiyatlilik darajasi turli mamlakatlar real YaIMning hajmidan kelib chiqqan holda farqlanadi. Real YaIM hajmi nisbatan kichik bo'lgan mamlakatlar uchun 8-10% darajasidagi iqtisodiy o'sish sur'ati me'yordagi holat sanalishi, real YaIM hajmi juda katta bo'lgan mamlakatlar uchun 2-3% darajasidagi iqtisodiy o'sish sur'ati esa ahamiyatli ko'rsatkich hisoblanishi mumkin.

Iqtisodiy o'sish sur'atining ahamiyatini iqtisodchilar tomonidan qo'llaniluvchi «**70 miqdori qoidasi**» yordamida ham ochib berish mumkin. Bu qoidaga ko'ra, milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarilayotgan YaIM hajmini 2 baravarga oshirishda qancha vaqt talab etilishini aniqlash uchun 70 sonini yillik o'sish sur'atiga bo'lish kerak bo'ladi. Masalan, mamlakatimizdagi o'sish sur'atining 9% darajasida YaIMni 2 baravar oshirish uchun 7,7 yil talab etiladi (70:9). Xolbuki, iqtisodiy o'sishning 2000 yildagi 4,0% darajasida bu ko'rsatkichga 17,5 yilda (70:4) erishish mumkin edi. Keyingi yillarda iqtisodiy o'sish sur'atining yanada oshirilishi bu muddatning ahamiyatli ravishda qisqarishiga olib keladi.

Ijtimoiy mahsulotning o'sish sur'ati bilan ishlab chiqarish omillari miqdorining o'zgarishi o'rtasidagi nisbat iqtisodiy o'sishning ekstensiv yoki intensiv turlarini belgilab beradi.

Ekstensiv iqtisodiy o'sishga ishlab chiqarishning avvalgi texnikaviy asosi saqlanib qolgan holda ishlab chiqarish omillari miqdorining ko'payishi tufayli erishiladi. Aytaylik, mahsulot ishlab chiqarishni ikki hissa ko'paytirish uchun ishlab chiqarish omillari miqdori ikki barobar ko'paytirilishi lozim, sodda qilib aytganda mavjud korxonalar bilan bir qatorda o'rnatilgan uskunalarning quvvati, miqdori va sifati, ishchi kuchining soni va malaka tarkibi bo'yicha xuddi o'shanday yana korxonalar qurilishi lozim. Ekstensiv rivojlanishda, agar u sof holda amalga oshirilsa, ishlab chiqarish samaradorligi o'zgarmay qoladi.

Iqtisodiy o'sishning intensiv turi sharoitida mahsulot chiqarish miqyoslarini kengaytirishga ishlab chiqarish omillarini sifat jihatidan takomillashtirish, yanada ilg'or ishlab chiqarish vositalarini va yangi texnikani qo'llash, ishchi kuchi malakasini oshirish, shuningdek, mavjud ishlab chiqarish potensialidan yaxshiroq foydalanish yo'li bilan erishiladi. Intensiv yo'l ishlab chiqarishga jalb etilgan

resurslarning har bir birligidan olinadigan samaraning, pirovard mahsulot miqdorining o'sishida, mahsulot sifatining oshishida o'z ifodasini topadi.

Real hayotda ekstensiv va intensiv omillar sof holda, alohida-alohida mavjud bo'lmaydi, balki muayyan uyg'unlikda, bir-biri bilan qo'shilgan tarzda bo'ladi. Shu sababli ko'proq ustuvor ekstensiv va ustuvor intensiv iqtisodiy o'sish turlari haqida so'z yuritiladi².

Iqtisodiy o'sishning alohida tomonlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlari ham mavjud bo'lib, ulardan asosiylari ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanish darajasi, mehnat unumdorligining o'sishi va ish vaqtini tejash, shaxsiy daromad va foyda massasi, milliy iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi kabilar hisoblanadi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar darajasi quyidagi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi:

- a) ishlab chiqarish vositalarining rivojlanganlik darajasi;
- b) xodimning malakasi va tayyorgarlik darajasi;
- v) ishlab chiqarishning moddiy va shaxsiy omili o'rtasidagi nisbat;
- g) mehnat taqsimoti, ishlab chiqarishning tashkil etilishi, ixtisoslashtirilishi va kooperatsiyasi.

Iqtisodiy o'sishning jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan boshqa ko'rsatkichi iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi hisoblanadi. U tarmoqlar bo'yicha hisoblab chiqilgan YaIM ko'rsatkichi asosida tahlil qilinadi. Bunda iqtisodiyotning yirik sohalari, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlari o'rtasidagi nisbat ham o'rganiladi.

1.2. Iqtisodiy o'sishning omillari.

Iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh omillar **taklif omillari** deb ham atalib, iqtisodiyotning o'sish layoqatini belgilab beradi:

- 1) tabiiy resurslarning miqdori va sifati;
- 2) ishchi kuchi resurslari miqdori va sifati;
- 3) asosiy kapital (asosiy fondlar) ning hajmi;
- 4) texnologiya va fan-texnika taraqqiyoti.

Bu omillar har birining yalpi mahsulot hajmiga ta'sirini baholash orqali iqtisodiy o'sishni tavsiflash mumkin.

Ma'lumki, yalpi ichki mahsulot ishchi kuchi, kapital va tabiiy resurslar sarflarining funksiyasi hisoblanadi, ya'ni:

$$Y = f(L, K, N),$$

bu yerda:

Y – yalpi ichki mahsulot;

L – ishchi kuchi sarflari;

K – kapital sarflari;

N – tabiiy resurslar sarflari.

Bu funksional bog'lanishdan kelib chiqqan holda iqtisodiy o'sishni belgilab beruvchi bir qator xususiy ko'rsatkichlarni keltirib chiqarish mumkin:

- 1) **mehnat unumdorligi (Y/L)** – mahsulot ishlab chiqarish hajmining jonli mehnat sarflariga nisbati;
- 2) **mehnat sig'imi (L/Y)** – jonli mehnat sarflarining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga nisbati;
- 3) **kapital samaradorligi (Y/K)** – mahsulot ishlab chiqarish hajmining unga sarflangan kapital xarajatlariga nisbati;
- 4) **kapital sig'imi (K/Y)** – kapital xarajatlarining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga nisbati;
- 5) **tabiiy resurslar samaradorligi (Y/N)** – mahsulot ishlab chiqarish hajmining qo'llanilgan tabiiy resurslar miqdoriga nisbati;

² Adam Szirmai, Wim Naude, Micheline Goedhuys., Entrepreneurship, Innovation, and Economic Development. UK, 2011, English.

6) **mahsulotning resurslar sig'imi (N/Y)** – tabiiy resurslar sarfining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga nisbati;

7) **ishchi kuchining kapital bilan qurollanganlik darajasi (K/L)** – ishlab chiqarish jarayonida qo'llanilayotgan kapital hajmining ishchi kuchi miqdoriga nisbati.

Iqtisodiy o'sishni tahlil qilishda yuqorida ko'rib chiqilgan ko'rsatkichlardan tashqari yana **keyingi qo'shilgan ishlab chiqarish omillari unumdorligi** ko'rsatkichlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ko'rsatkichlar, boshqa omillar sarfi o'zgarmagani holda, har bir alohida omil sarfining qo'shimcha o'sishi ta'sirida mahsulot ishlab chiqarish hajmining qo'shimcha o'sishi hajmini belgilab beradi:

- 1) keyingi qo'shilgan mehnat unumdorligi ($\Delta Y/\Delta L$);
- 2) keyingi qo'shilgan kapital unumdorligi ($\Delta Y/\Delta K$);
- 3) keyingi qo'shilgan tabiiy resurslar unumdorligi ($\Delta Y/\Delta N$).

Bu ko'rsatkichlar yalpi mahsulot ishlab chiqarish umumiy hajmining o'sishida har bir omilning hissasini namoyon etib, u quyidagicha aniqlanadi:

$$Y = (\Delta Y / \Delta L)L + (\Delta Y / \Delta K)K + (\Delta Y / \Delta N)N .$$


Iqtisodiy o'sishga **taqsimlash omillari** ham ta'sir qiladi. Ishlab chiqarish calohiyatidan maqsadga muvofiq foydalanish uchun nafaqat resurslar iqtisodiy jarayonga to'liq jalb qilingan bo'lishi, balki juda samarali ishlatilishi ham zarur. Resurslarning o'sib boruvchi hajmidan real foydalanish va ularni kerakli mahsulotning yuqori miqdorini oladigan qilib taqsimlash ham zarur bo'ladi.

Real mahsulot ikki asosiy usulda ko'paytirilishi mumkin: 1) resurslarning ko'proq hajmining jalb etilishi; 2) ulardan ancha unumli foydalanish yo'li bilan (2-chizma).

Amaliy hayotda iqtisodiy o'sishni susaytirib turuvchi omillar ham mavjud bo'ladiki, ular mehnat muhofazasi, atrof-muhitning ifloslanishi kabi holatlar natijasida kelib chiqadi. Keyingi yillarda respublikamizda davlat tomonidan atrof-muhit ifloslanishining oldini olish, xodimlar mehnat sharoitini yaxshilash va sog'lig'ini muhofaza qilishni tartibga solishda muhim tadbirlar amalga oshirildi. Bu o'z navbatida iqtisodiy o'sish sur'atiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki bunday tadbirlarni amalga oshirish tegishli xarajatlarni taqozo qiladi. Shu orqali mehnat unumdorligini oshirish uchun zarur bo'lgan mablag'lar boshqa tomonga jalb qilinadi.

2-chizma

Real mahsulot o'sishini aniqlab beruvchi omillar



Iqtisodiy o'sishning mohiyati iqtisodiyotning asosiy qarama qarshiligi xisoblangan ishlab chiqarish resurslarini cheklanganligi bilan ijtimoiy extiyojlarni o'sishini cheksizlik o'rtasidagi asosiy ziddiyatni yangi darajada hal etish va qayta ishlab chiqarishdan iborat. Ushbu ziddiyat ikki asosiy usul bilan hal etilishi mumkin:

1. ishlab chiqarish imkoniyatlarini ko'paytirish hisobidan;
2. mavjud ishlab chiqarish imkoniyatlaridan samarali foydalanish va ijtimoiy extiyojlarini rivojlantirish hisobidan hal etilishi mumkin.

“Iqtisodiy o‘shning sifati” tushunchasi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini ijtimoiy yo‘naltirilganini kuchayishini ifodalaydi.

Iqtisodiy o‘sh sifati tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- aholining moddiy farovonligini yaxshilanishi;
- shaxsining xar tomonlama rivojlanishini asosi xisoblangan bo‘sh vaqtini ko‘payishi;
- ijtimoiy infratuzilma tarmoqlari rivojlanish darajasini o‘shishi;
- inson kapitaliga sarflanadigan investitsiyani o‘shishi;
- kishilarning turmush va mexnat sharoiti xavfsizligi ta‘minlash;
- ishsizlarning va mexnat qobiliyatiga ega bo‘lmagan axolini ijtimoiy ximoya qilish;
- mexnat bozoridagi taklif o‘sib borayotgan sharoitda to‘la bandlikni qo‘llab-quvvatlash.

Iqtisodiy o‘shning yangi sifatiga o‘tish quyidagilarni anglatadi:

- iqtisodiy rivojlanishga asosan ilmiy-texnika taraqqiyotini omillari xisoblangan kompyuterlar, resursni tejaydigan texnologiyalarni qo‘llash orqali erishiladi;
- iqtisodiy rivojlanishga tovar va xizmatlarni sifatini oshirish va sog‘lom raqobat muhitini kuchaytirish hisobiga erishiladi;
- iqtisodiy rivojlanishga insonning yashaydigan ekologik muxitni ximoya qilish borasidagi talablarini bajarish hisobiga erishiladi;
- iqtisodiy rivojlanish ijtimoiy yo‘naltirilganlikka qaratilgan bo‘ladi.

Barqaror rivojlanish – iqtisodiyotning uzoq muddat muvozanatli, uzluksiz rivojlanish holati.


Barqaror rivojlanish – insonlarning imkoniyatlarini saqlab qolish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan aktivlar (portfeli)ni boshqarish jarayoni (Jahon banki).

- Bunda aktivlar tushunchasi jismoniy kapital bilan bir qatorda tabiiy va inson kapitalini ham qamrab oladi.
- Barqaror rivojlanishni ta‘minlash uchun iqtisodiy o‘sh ta‘minlanishi yoki hech bo‘lmaganda ushbu davrda aktivlar miqdori kamaymasligi zarur.

Aktivlarning o‘zgarishi deganda mamlakatdagi jamg‘armalar, investitsiyalar, jamg‘arilgan boylikning “sof o‘sh” sur‘ati tushuniladi.

3-chizma

Barqaror iqtisodiy o‘sh yo‘nalishlari



1. Iqtisodiy soha:

- ❖ Iqtisodiy o‘shishga erishishda yalpi kapital (fiziologik, tabiiy yoki inson kapitali) darajasini saqlash;
- ❖ Iqtisodiy o‘shish yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali aholi bandligini ta‘minlash va cheklangan resurslar sharoitida ehtiyojlarni samarali qondirish:
 - Ishlab chiqarish jarayonida ekologik, tabiiy, takomillashgan zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash va chiqindilarni qayta ishlash;
 - Yuqori qiymatga ega bo‘lmagan, zamonaviy va maqbul elektr energiyasi bilan ta‘minlash;
 - Yuqori texnologik ishlab chiqarishni va innovatsion jarayonlarni amalga oshirishga zamin yaratuvchi infratuzilmani tashkil etish;
 - Suv resurslaridan foydalanishning maqbul modellarini ishlab chiqish;
- ❖ Iqtisodiy dasturlarni amalga oshirishda ularning tabiat qonuniyatlariga zid kelmasligi va ekologik xavf-xatarlarni yuzaga kelishiga sabab bo‘lmasligi inobatga olish.

2. Ijtimoiy soha

Madaniy va ijtimoiy barqarorlikni saqlab qolish, ne‘matlarni adolatli taqsimlash, inson kapitalini ko‘paytirishga yo‘naltirilgan ijtimoiy muammolarni anglash. Bunda quyidagilar ustuvor hisoblanadi:

- qashshoqlik va ochlikni yo‘qotish, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash va ovqatlanish sifatini yaxshilash, qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanishiga ko‘maklashish;
- Aholining kambag‘al qatlamlariga maqsadli yordam ko‘rsatish;
- Sog‘lom turmush tarzi va barcha yoshdagi aholi guruhlari uchun turmush farovonligini ta‘minlash;
- Sifatli ta‘lim bilan barchani qamrab olish va insonni umri davomida ta‘lim imkoniyatlarini rag‘batlantirish.

1.3. O‘zbekistonda iqtisodiy o‘shishning yuqori sur‘atlarini ta‘minlash omillari va natijalari.

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida olib borilgan islohotlar orqali iqtisodiyotning barqaror o‘shishi ta‘minlandi, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlik mustahkamlandi, iqtisodiyot va uning ayrim sohalari o‘rtasidagi mutanosiblik kuchaydi; bozor mexanizmining tarkibiy qismlari qaror topdi va uning infratuzilmalari vujudga keltirilib, rivojlantirildi.

Mamlakatimizda iqtisodiy o‘shishning yuqori sur‘atlarini ta‘minlanish maqsadida quyidagi jarayonlarning amalga oshirilishiga katta e‘tibor qaratildi:

- keng ko‘lamdagi tizimli bozor islohotlarini izchil amalga oshirish;
- xorijiy investitsiyalarni jalb qilish chora-tadbirlarini kuchaytirish;
- iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish;
- ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilash;
- eksportga ixtisoslashgan yangi tarmoq va korxonalarini barpo etish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga qaratilgan, har tomonlama puxta o‘ylangan siyosatni amalga oshirish.

1-jadval

Ko‘rsatkichlar	2010	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Yalpi ichki mahsulotning o‘shishi	8,5	8,0	7,8	5,2	5,1	5,6	2,0	7,4	5,7
Sanoat mahsulotning o‘shishi	8,3	8,0	6,0	8,0	10,6	5,0	0,9	8,8	5,2
Xizmat ko‘rsatish hajmi	13,4	10,8	12,5	10,7	6,3	13,2	1,1	9,5	8,5

Qishloq xo'jaligi	6,8	7,0	6,6	2,0	0,3	3,1	2,9	4,0	3,6
Savdo sohasi	14,7	15,0	14,4	1,9	4,4	7,9	0,1	12,0	12,3
Eksport umumiy hajmining o'sishi	10,8	-10,4	0,5	6,6	13,6	24,8	-13,4	10,0	15,9
Davlat budjetining bajarilishi	+0,3	+0,1	+0,1	+0,2	+0,02	-1,1	-4,4		-4,0
Inflyatsiya darajasi	7,3	5,6	5,7	14,4	14,3	15,2	11,1	9,98	12,6
Aholi jon boshiga real daromadlarning o'sishi	23,5	4,3	6,9	8,4	7,1	3,8	2,6	9,9	3,5

Makroiqtisodiy barqarorlikning asosiy belgilari:

- ❖ Daromadlar taqsimlanishi muammosi
- ❖ Iqtisodiy o'sish
- ❖ To'la bandlik
- ❖ Ichki narxlarning barqarorligi (inflyatsiya)
- ❖ Baquvvat to'lov balansi
- ❖ Davlat budjeti kamomadining YaIMga nisbatan 3% dan oshib ketmasligi

Iqtisodiy o'sishning asosiy shartlari:

1. Joriy yilda ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot (YaIM) avvalgi yilga nisbatan ko'proq bo'lishi.


2. YaIMning o'sish sur'ati aholi o'sish sur'atidan yuqori bo'lishi, ya'ni kishi boshiga ishlab chiqarilgan YaIMning ko'payishi.

Mamlakat iqtisodiyoti rivojining bosqichlari:

- 1- bosqich. 1991-1995 yillar (pasayish yillari)
- 2- bosqich. 1996-2003 yillar (barqarorlashtirish yillari)
- 2004-2016 yillar (yoqori o'sish sur'atlari ta'minlangan yillar)
- 4- bosqich. 2017 yildan hozirga qadar (iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yillari)

4-chizma

O'zbekistonda real YaIM sur'atlari, o'tgan yillarga nisbatan foiz hisobida



2023 yilda Hitoy va Hindiston hissasiga jahon iqtisodiy o‘shini yarmi to‘g‘ri keladi. Hitoyda o‘tgan yili YaIMning o‘shisi 3% ni tashkil etdi. 2023 yilda esa Hitoyda iqtisodiy o‘shish sur‘atlari 4,4% bo‘lishi prognoz qilinyapti.

2023 yilda Jaxon iqtisodiyotining YaIMi 2,7%ga o‘shishi kutilmoqda. Ushbu ko‘rsatgich 2021 yilda 6% va 2022 yilda 3,2% tashkil etdi. Iqtisodiy o‘shish sur‘atlari inflyatsiyani yuqori darajasi, jahonning yetakchi mamlakatlarining Markaziy Banklarini qayta moliyalash stavkasini oshishi, yoqilg‘i va oziq-ovqat krizisi, SOVID-19 pandemiya, Global qo‘shilgan qiymat zanjirini uzilishi, Ukrainadagi urush, Rossiyaga nisbatan qo‘llanilgan sanksiyalar, jahon iqtisodiyotidagi degloballashuv va proteksionizm siyosatini qo‘llash tufayli pasaydi.

Iqtisodiy o‘shish sur‘atlari inflyatsiyani yuqori sur‘ati jumladan: Jahonda – 8,8% avvalgi yilga nisbatan 4% yuqori, AQShda – 8%, Yevropa Ittifoqida – 12% tashkil qildi.

AKSh FRZning qayta moliyalash stavkasining 4% ga yetqazilishi, jahon kapital bozoridagi kredit foiz stavkasini keskin oshishiga sabab bo‘ldi.

Halqaro valyuta fondi xulosasiga ko‘ra 2023 yilda jahon YaIMini sekinlashtiruvchi quyidagi omillar mavjud:

- yuqori inflatsiya;
- yuqori foiz stavkalari;
- Ukrainadagi urush oqibatlarini;
- Jaxon iqtisodiyotining iqtisodiy o‘shishiga degloballashuv va fragmentlashuv, “Brekzit”, AQSh va Hitoy o‘rtasidagi savdo, texnologik urush, COVID-19 pandemiya oqibatlarini, investitsion faollikni susayishi va Ukrainadagi urush bilan bog‘liq bo‘lgan holatlar tasir ko‘rsatmoqda;
- Jahon iqtisodiyotini fragmentlashuvi global YaIMni 0,2% dan 7%gacha qisqartirishi mumkin;
- 2023 yilda XVF prognoziga ko‘ra Jahon iqtisodiyoti 2,7%ga o‘sadi, JBning hisob kitobiga ko‘ra esa ushbu ko‘rsatgich 1,7% ko‘payadi;
- Ushbu prognozlar ohirgi 80 yil ichida birinchi marta bir o‘n yillik ichida ikki global retsessiya sodir bo‘lganini bildiradi;

Bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o‘shish sur‘atlari

	2020	2021	2022e	2023f	2024f
ВВП в рыночных ценах (среднегодовые цены в долларах США за период с 2010 по 2019 гг.)					
Албания	-3.5	8.5	3.5	2.2	3.4
Армения	-7.2	5.7	10.8	4.1	4.8
Азербайджан	-4.3	5.6	4.2	2.8	2.6
Беларусь	-0.9	2.6	-6.2	-2.3	2.5
Босния и Герцеговина ^a	-3.1	7.5	4.0	2.5	3.0
Болгария	-4.0	7.6	3.1	1.7	3.3
Хорватия	-8.6	13.1	6.6	0.8	3.1
Грузия	-6.8	10.4	10.0	4.0	5.0
Венгрия	-4.5	7.1	5.1	0.5	2.2
Казахстан	-2.5	4.1	3.0	3.5	4.0
Косово	-5.3	10.7	3.1	3.7	4.2
Кыргызская Республика	-8.4	3.6	5.5	3.5	4.0
Молдова	-7.4	13.9	-1.5	1.6	4.2
Черногория	-15.3	13.0	5.9	3.4	3.1
Республика Северная Македония	-4.7	3.9	2.1	2.4	2.7
Польша	-2.0	6.8	4.4	0.7	2.2
Румыния	-3.7	5.1	4.6	2.6	4.2
Российская Федерация	-2.7	4.8	-3.5	-3.3	1.6
Сербия	-0.9	7.5	2.5	2.3	3.0
Таджикистан	4.4	9.2	7.0	5.0	4.0
Турция	1.9	11.4	4.7	2.7	4.0
Украина	-3.8	3.4	-35.0	3.3	4.1
Узбекистан	1.9	7.4	5.7	4.9	5.1

Источник: Всемирный банк.

- Qisqa va o‘rta muddatli istiqbolda jahon ishlab chiqarishiga ta‘sir etuvchi risklar, uni o‘shish sur‘atlarini pasaytiradi. Xalqaro savdo borasidagi keskinlikni ortishi va ko‘ptomonlama savdo


tizimidan kechish ehtimoli jahon iqtisodiy o‘shishiga asosiy xavf tug‘diruvchi omillarga aylandi.

- Barcha mamlakatlar tarkibiy islohotlarni qabul qilishi va amalga oshirishga qaratilgan imkoniyatlardan foydalanishlari lozim. Ushbu holat mehnat unumdorligini oshirish va olingan samaralardan to‘liq foydalanish, jumladan, texnologik innovatsiyalar va texnologiyalarni tarqatishni rag‘batlantirish, tarkibiy o‘zgarishlar tufayli ish joylarini yo‘qotgan kishilarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish, ta’lim va kadrlarni ishga joylashtirish imkoniyatlarini oshirish uchun investitsiyalarni sarflash lozim.


Иқтисодий адабиётда қўйидаги илмий муаммолар муҳокама қилинмоқда: *-new normal* (янги норма) — инқироздан кейинги даврдаги иқтисодий ўсиш суръатларининг 1990-2000 йилларга нисбатан паст даражада ривожланиш модели.

Ривожланаётган мамлакатларда «ўрта даромадлар тузоғи» (middle income trap) мавзуси борган сари машҳур бўлмоқда

Dunyo mamlakatlari global ishlab-chiqarish-sotish zanjirining qayta ishlash, qisman qatnashish bosqichiga qo‘shilganda jon boshiga daromadlar o‘sa boshlaydi



Валовой внутренний продукт на душу населения в Узбекистане



O'zbekistonni 2030 yilgacha rivojlantirish strategiyasi maqsadi

- barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish;
- aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish;
- aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish;
- xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish;
- mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlash.

Nazorat savollari:

1. Iqtisodiy o'sishni iqtisodiyotga ta'sirini izohlab bering?
2. Iqtisodiy o'sishning taqsimlash omillari haqida tushuncha bering?
3. Qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan ishlar haqida statistik tahlil keltiring?
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanish tendensiyalarini izohlang?
5. Investitsiya dasturi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida izoh bering?
6. O'zbekistonda 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlari tushuncha bering?

Foydalanilgan adabiyotlar:

Maxsus adabiyotlar

1. Tay Vaughan., Multimedia: Making it Work. USA, 2016, English.
2. Martin Weale, Andrew Blake, Nicos Christodoulakis, James E Made, David Vines., Macroeconomic Policy. UK, 2015, English.
3. Keith S. Taber., Modelling Learners and Learning in Science Education: Developing Representations of Concepts, Conceptual Structure and Conceptual Change to Inform Teaching and Research. Springer., UK, 2013, English.
4. Andrew P. Sage, William B. Rouse., Economic Systems Analysis and Assessment: Intensive Systems, Organizations, and Enterprises. USA, 2011, English.
5. Dimitrios Asteriou, Stephen G. Hall., Applied econometrics (second edition). USA, 2011, English.

6. Adam Szirmai , Wim Naude , Micheline Goedhuys., Entrepreneurship, Innovation, and Economic Development. UK, 2011, English.

Internet resurslari

1. <http://www.mineconomi.uz>.
2. www.uzreport.com
3. www.reuter.com
4. www.ebrd.com
5. www.forexite.com
6. <http://www.wordbank.org>.
7. <http://www.ebrd.org>.
8. <http://www.imf.org>
9. www.undp.org
10. www.ecb.int

2-MAVZU. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY SEKTORNING RIVOJLANISHI

Reja:

1. Xususiy mulkchilikning mohiyati, guruhlanishi, afzalliklari va milliy iqtisodiyotdagi o'рни.
2. Davlat mulkini xususiylashtirish va xususiy sektorning rivojlanish yo'nalishlari.
3. Xususiy sektorning rivojlanishi va barqaror iqtisodiy o'shishni ta'minlash.

✎ Tayanch iboralar:

milliylashtirish, davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish, xusuiy sektor, davlat sektori, kichik biznes, o'rta biznes, yirik biznes, xususiy tadbirkorlik

2.1. Xususiy mulkchilikning mohiyati, guruhlanishi, afzalliklari va milliy iqtisodiyotdagi o'рни.

Xususiy mulk fuqorolar mulkining shakli sifatida O'zbekistonda 1990-yildan huquqiy-asosga ega bo'ldi. Shaxsiy mulkdan farqli o'laroq foyda, daromad olish maqsadiga xizmat qiladi. Xususiy mulk joriy etilganda u chegaralangan yollanma mehnatdan foydalanuvchi individual mehnat faoliyatini amalga oshirishning huquqiy shakli sifatida amal qilishi ko'zda tutilgan.

O'zbekistondagi amaldagi qonunchilikka muvofiq tadbirkorlik subyektlari ishchilar soni va yilli daromad hajmi asosida quyidagi toifalarga ajratiladi:

a) kichik tadbirkorlik subyektlari:

yakka tartibdagi tadbirkorlar;

mikrofirmalar — ta'sischilari (ishtirokchilari) jismoniy shaxslar bo'lgan hamda jami daromadi kalendar yil davomida 1 milliard so'mgacha bo'lgan tadbirkorlik subyektlari;

kichik korxonalar — jami daromadi kalendar yil davomida 1 milliard so'mdan 10 milliard so'mgacha bo'lgan tadbirkorlik subyektlari;

b) **o'rta tadbirkorlik subyektlari** — jami daromadi kalendar yil davomida 10 milliard so'mdan 100 milliard so'mgacha bo'lgan tadbirkorlik subyektlari;

d) **yirik tadbirkorlik subyektlari** — jami daromadi kalendar yil davomida 100 milliard so'm va undan yuqori bo'lgan tadbirkorlik subyektlari.

Ushbu xususiy biznes subyektlari davlat tomonidan 2023-yil 1-apreldan boshlab quyidagicha qo'llab-quvvatlanadi:

a) Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi hisobidan bir yilda bir marotaba o'rta tadbirkorlik subyektlariga mol-mulknini sug'urta qilish xarajatlarining 50 foizigacha, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravaridan oshmagan qismi qoplab beriladi;

b) jami daromadi 10 milliard so'mdan kam bo'lmagan tadbirkorlik subyektlari uchun davlat xaridlarida 20 foizlik kvota joriy etiladi va ushbu xaridlar doirasida budjet buyurtmachilari bilan

tuziladigan shartnomalarda 50 foiz miqdorida oldindan to'lovni amalga oshirish nazarda tutiladi.

2017-yildan boshlab O'zbekistonda xususiy sektorni rivojlantirish va uni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar boshlandi.

O'zbekistonda xususiy sektorni rivojlantirishni rag'batlantirish va biznes yuritish muhitini yaxshilashga qaratilgan quyidagi kompleks chora tadbirlar amalga oshirildi:

- Tovarlar bozoridagi raqobatni rivojlanishini davom ettirish.
- Soliq rejimi korxonalarining rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratishi lozim.
- Norasmiy sektorda faoliyat yurituvchi biznesga qarshi kurash va resurslar undan unumli foydalanuvchi korxonalar o'rtasida taqsimlanishini kafolatlash.
- Bank sektorida raqobatni rivojlantirishga va korxonalarni bankdan moliyalashtirish imkoniyatlarini optimallashtirishga qaratilgan raqobatni islohotlarni davom ettirish.
- Raqobatni rivojlantirishga qaratilgan elektrenergetika sektoridagi islohotlarni chuqurlashtirish, eskirgan energetika infratuzilmasini yangilash va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash.
- Korxonalar hajmini ortishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan aktiv chora tadbirlar siyosatini amalga oshirish.


2019-yildan boshlab hukumat raqobat siyosatini isloh etishga qaratilgan chora tadbirlarni amalga oshira boshladi. Jumladan 2019-yil yanvarda xususiylashtirilayotgan korxonalariga va raqobatni rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi Davlat qo'mitasi asosida uchta alohida davlat strukturalari yaratildi:

1. Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi;
2. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi;
3. Kapital bozorini rivojlantirish agentligi.

2020 yil iyulda Prezident farmoni bilan raqobatni rivojlantirish strategiyasi va amalga oshirish bosqichlari belgilandi. Ushbu qarorda raqobatning asosiy tamoyillari, raqobatni rag'batlantirishning aniq muddatlari va O'zbekistonda raqobatni rivojlantirishning kompleks strategiyasini amakga oshirishga mas'ul tashkilotlar belgilandi. Ushbu qarorga muvofiq va O'zbekistonda raqobatni rivojlantirishga ta'sir qiluvchi quyidagi asosiy cheklovlarni bekor qilish ko'zda tutilgan:

- iqtisodiyotda davlatning haddan ziyod yuqori ishtiroki;
- narxlarning haddan ortiq tartibga solinishi;
- imtiyoz va preferensiyalarning samarasiz tizimi;
- biznes subyektlariga yuqori tartibga solish yuki va tarmoq tartibga soluvchi organlarning raqobatni rivojlantirishdan manfaatdor emasligi;
- tabiiy monopoliya holatini suiiste'mol qilish;
- raqobatga qarshi holatlarga qarshi kurashish huquqiy mexanizmlarning takomillashmaganligi.


1-rasm. O'zbekiston va Yevropa va Markaziy Osiyoning ayrim mamlakatlarida ishlab chiqarish sektori bozorining tarkibi, 2019 yil.



2019-yilda Jahon banki tomonidan o'tkazilgan so'rovnomalar ko'rsatishicha O'zbekistonda ishlab chiqarish sektorida monopol, duopol va oligopoly bozor tuzilmalarining keng tarqalganligi aniqlandi.

Tahlillar ko'rsatishicha xususiy sektorning mamlakat YaIMidagi ulushi 82.0%ni tashkil etgan holda chakana tovar aylanmasi 99.97%ni, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 99.4%ni tashkil etdi. Shu bilan birgalikda iqtisodiyotda band bo'lganlarning 81.3%i xususiy sektorda faoliyat yuritmoqda.

2-rasm. 2021- yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha davlat va nodavlat sektorining ulushi (jamiga nisbatan foizda)



O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan rasmiy xususiy sektor uchun quyidagi belgilar xos:

- yangi korxonalarining rasmiy sektorga kirishi boshqa mamlakatlarga nisbatan past hisoblanadi;
- bozorga kirayotgan korxonalarda mehnat unumdorligi past va ularning o'sish suratlari sustligicha qolmoqda;
- rasmiy xususiy sektordagi bandlik darajasi boshqa tarmoqlardagi kichik korxonalariga nisbatan jadal suratlarda o'sib bormoqda;
- foydalanilayotga resurslar intensivligining pastligi va innovatsion faoliyat natijalarining kam qo'llanilishi, xususiy korxonalarining innovatsion faolligining pastligi korxonalar qobiliyatlarining yetarlicha emasligi bilan belgilanadi, jumladan, Ozbekistonda faoliyat yuritayotgan xususiy rasmiy korxonalarining 8.2%i xalqaro e'tirof etilgan sifat sertifikatlariga ega.

Tahlillar ko'rsatishicha O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi quyidagi to'siqlar mavjud:

- soliq stavkalari (23%);
- norasmiy sektor faoliyati (15%);
- elektrenergiya uzilishi (12%);
- moliyalashtirish imkoniyatlari (10%);
- yuk tashish (9%);
- yetarli ma'lumot darajasiga ega kadrlarning yetishmasligi (8%);
- yerdan foydalanish huquqiga ega bo'lish (7%);
- korrupsiya (5%);
- soliq ma'murchligi (3%);
- biznesni yuritish uchun litsenziya va ruxsatnomalar (3%)

“O'zbekiston – 2030” strategiyasiga muvofiq 2030 yilga borib iqtisodiyotda nodavlat sektor ulushini 85%ga yetkazish, davlat ulushi mavjud 2300ta korxonalar sonini 6 baravarga kamaytirish ko'zda tutilgan.

Respublikada 17 turdagi davlat monopoliyasini bekor qilish, ushbu sohalarga xusuiy sektorni keng jalb qilish, davlat tasarrufida faqat magistral energiya va transport tarmoqlari, davlat boshqaruvi va xavfsizligi bilan bog'liq sohalarni saqlab qolish rejalashtirilgan.

Temir yo'lda tashish avtomobil yo'llarini qurish va boshqarish, gaz va elektr yetkazib berish xizmatlarini xususiy sektorga olib berish maqsad qilingan.

Irrigatsiya, chiqindilarni qayta ishlash, ijtimoiy obyektlarda energetika va issiqlik ta'minoti kabi davlat monopol sohalarida xususiy sheriklik mexanizmlarini keng joriy qilish rejalashtirilgan.

Mahalliy tadbirkorlik subyektlariga strategik foydali qazilma konlarni berish amaliyotini kengaytirish, oltin, kumush, rangli metallar, volfram, ko'mir, noruda konlarga berilgan ruxsatnomalar sonini 4 baravar oshirish belgilangan.

Soliq tizimining barqarorligini ta'minlash maqsadida biznes uchun qo'shilgan qiymat va foyda solig'i stavkalari 3 yil davomida oshirilmashligini kafolatlash ko'zda tutilgan.

Soliq tizimini to'liq raqamlashtirish, soddalashtirish va barcha tadbirkorlar uchun teng imkoniyatlar yaratish, rasmiy sektor – nolegal faoliyatdan afzal va manfaatli bo'lishi uchun barcha zarur sharoitlarni ta'minlash maqsad qilingan.

Kichik va o'rta biznesning xalqaro bozorlarga chiqishiga imkoniyatlarni kengaytirish, mikromoliyalashtirishni rivijlantirish, innovatsiyalar va startaplarni qo'llab-quvvatlash hamda yirik biznes bilan kooperatsiyani rivojlantirishning yangi instrumentlarini amaliyotga joriy etish mo'ljallangan.

Oilaviy tadbirkorlik asosida bandlikni ta'minlashda "oddiy qo'l" mehnatidan sanoatlashgan ishlab chiqarish bosqichiga o'tish, uskuna imtiyozli kredit miqdorini 100 mln. so'mgacha oshirish rejalashtirilgan.

Tadbirkorlik subyektlariga barcha xizmatlarni "yagona darcha" tamoyili asosida onlayn portal orqali ko'rsatish va xizmat ko'rsatis vaqtini o'rtacha 3 baravargacha qisqartirish ko'zda tutilgan.

2.2. Davlat mulkini xususiylashtirish va xususiy sektorning rivojlanish yo'nalishlari.

Davlat mulkini xususiylashtirish bozor munosabatlarin shakllantirishni ustuvor yo'nalishlaridan bir hisobalandi. Davlat mulkini xususiylashtirish ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish imkonini beradi va u yangi mulk munosabatlarini vujudga kelishga olib keladi.

Davlat mulkini xususiylashtirish jahonning ko'pgina mamlakatlarida jumladan bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlarda amalga oshiriladi va ular vazifalari, miqyosi, shakllariga ko'ra farqlanadi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan xususiylashtirishning maqsadi bozor xo'jalik munosabatlarini shakllanishi uchun sharoitlar yaratish, xususiy mulk institutini vujudga keltirish, bozor iqtisodiyotni iqtisodiy va huquqiy asoslar va instutlarini yaratishdan iborat. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan xususiylashtirishdan ikki xil maqsad ko'zlangan. Birichidan, respublikadagi mulk o'zini real egasini topishi kerak. Mulkini haqiqiy egalriga berish, ularni tadbirkorlik faoliyati uchun keng imkoniyatlarni yaratish ko'zlangan iqtisodiy islohatlarning asosiy mazmunini tashkil etadi. Xususiylashtirishi natijasida mulk egasi undan samarali va haqiqiy mulkdor sifatida foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Xususiylashtirishdan ko'zlangan ikkinchi maqsad bu ko'p ukladli iqtisodiyotni va raqobat muhitini shakllanishini rag'batlantirishdir. Pirovard natijada bozor va ishlab chiqarish natijasi uchun iqtisodiy kurash uchun imkoniyat yaratiladi. Xususiylashtirish vazifalarini hal etish milliy iqtisodiyotni va ayrim korxonalarini xususiy tadbirkorlik tashabbusi va raqobat yordamida iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashdan iborat. Xususiylashtirish natijasida quyidagi samaralarga erishiladi:

- eski siyosiy va xo'jalik tizimini qaytadan tiklash imkoniyatini yo'qolishi, demokratik institutlarni shakllanishini ta'minlash;
- mulkiy egalik huquqlarini qayta taqsimlash va ushbu huquqlarni himoya qilishni barqaror tizimini yaratish;
- ideologik – fuqarolar tomonidan xususiy mulkchilik instituti va bozor iqtisodiyoti ideologiyasini qabul qilish;
- ijtimoiy – siyosiy barqarorlikni, aholi real daromadlarining oshishining asos bo'lib xizmat qiladigan o'rta sinfn shakllanishi;
- psixologik – fuqarolar tomonidan yangi motivatsiya va xulqiy steriotiplarni anglash;
- institutsional – turli xil xo'jalik turlaridan iborat ko'p ukladli iqtisodiyotni, korporativ boshqaruv tizimini shakllantirish va bozor infratuzilmasini yaratish.

Xususiylashtirishni quyidagi huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi:

1991 yilda mulchilik to'g'risida qonun, Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risidagi qonun, 1996 yilda "Fuqarolik kodeksi" qabul qilindi, 1991-2022 yillarda 300 dan ortiq davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga oid quyidagi qonunlar qabul qilindi:

"Aksionerlik jamiyatlari va aksionerlarni huquqini himoya qilish to'g'risida"gi, "Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi qonun, "Xususiy korxonalar to'g'risida"gi qonun, "Xususiy tadbirkorlik faoliyatini erkinliklarini kafolatlash to'g'risida" gi qonun va boshqalar.

O'zbekistonda bozor munosabatlarini shakllantirishni modeli xususiyatlarini hisobga olgan holda davlat mulkini xususiylashtirishning o'ziga xos tamoyillari va yondashuvlari ishlab chiqildi:

- mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish shakli mehnat kollektivi a'zolari manfaatlaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi;
- antimonopol qonunchilik talablariga rioya etiladi;
- davlat mulkini xususiylashtirishni haq to'lanadigan va to'lanmaydigan shakllarini uyg'unlashtirish;
- hamma fuqarolarni mulkdan o'z ulushini olishda, haq to'lanadigan va haq to'lanmaydigan xususiylashtirishda teng huquqiyliigi;
- hamma fuqarolarni ijtimoiy jihatdan himoya qilinganligini ta'minlash;
- mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini oshkora, davlat va jamoatchilik nazoratida amalga oshirish.

O'zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish quyidagi shakllarda amalga oshirildi:

- davlat korxonalarini xo'jalik jamiyatlari yoki sheriklik jamiyatiga aylantirish;
- davlat mulkini nodavlat yuridik va jismoniy shaxslarga konkurs va auksionlar orqali sotish;

O'zbekistondagi xususiylashtirish quyidagi xususiyatlarga ega bo'ldi:

- tekin xususiylashtirishdan voz kechish;
- xususiylashtirishning manzilliligi;
- xususiylashtirish yiriklashtirish va mavjud ishlab chiqarish va boshqarish tarkibini demonopollashtirish muammolarini hal etish bilan kompleks tarzda o'tkazildi;
- davlat tasarrufidan chiqarishdan olingan mablag'larni jiddiy qismi xususiylashtirishdan keyingi tadbirkorlikni qo'llab-qo'vvatlash va rivojlantirishga sarflandi;
- Xususiylashtirishga dasturiy ko'rinishda yondashish va bosqichma bosqich amalga oshirish.

Mustaqillik yillarida davlat mulkini xususiylashtirish quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

1-bosqich. 1991-1994 yillar – davlatchilik asoslarini shakllantirish, iqtisodiyotda kichik xususiylashtirishni amalga oshirish, yangi ishlab chiqarish munosabatlarini yo'lga qo'yish.

2-bosqich. 1995-2000 yillar – o'rta xususiylashtirish, davlat va xo'jalik boshqaruvini yangi shakllari vujudga kelib, xolding, uyushma, konsern, kompaniya kabi tushilmalarni tashkil topishi va qayta tuzilishi.

3-bosqich. 2005-2016 yillar – yirik korxonalar, bank, surg'urta kabi tuzilmalarda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayoni amalga oshirildi, xususiy sektor rivojlandi.


4-bosqich. 2017 yildan boshlanib, nisbatan yirik, muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar xususiylashtirila boshlandi, davlat o'z aksiyalarini sotuvga chiqara boshladi, ayrim tijorat banklaridagi davlat ulushlari auksionga qo'yildi.

O'zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirish, rivojlantirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash natijasida tegishli iqtisodiy ukladlarga mos keladigan quyidagi xo'jalik turlari vujudga keldi:

- individual tadbirkorlar (shu jumladan dehqon xo'jaliklari);
- xususiy korxonalar;
- fermer xo'jaliklari;
- sheriklik xo'jaliklari;

- xo‘jalik jamiyatlari (AJ, MChJ);
- kooperativlar (shu jumladan qishloq xo‘jaligi);
- davlat unitar korxonalari.

Iqtisodiyot tarmoqlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni



O‘zbekistonda 2017-2021 yillarda xususiy sektorni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:


- tadbirkorlik faoliyati uchun zarur bo‘lgan 114 turdagi litsensiya va ruxsatnomalar bekor qilindi, jumladan 33 tasi xabardor qilinish ko‘rinishga o‘tkazildi;
- tadbirkorlik sub’ektlarini faoliyatini rasmiylashtirish va ruxsat berish jarayoni bosqichlari ikki marta qisqartirildi;
- rejadan tashqari tekshirishlar bekor qilindi;
- soliq turlari soni 13 tadan 9 taga qisqartirildi hamda qo‘shilgan qiymat solig‘i, ijtimoiy soliqlar stavkasi pasaytirildi;
- qayta registratsiya qilingan individual va oilaviy tadbirkorlar uchun yuridik shaxs sifatida rasmiylashtirilmasdan mikro kreditlar berish mexanizmi joriy qilindi;
- davlat maxsus moliyaviy yordam fondi tuzildi;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezident Administratsiyasi huzurida tadbirkorlik sub’ektlarini qonuniy-huquqiy jihatdan himoya qiluvchi mustaqil institut yaratildi.

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

Hududlar	2001	2005	2010	2015	2020	2021	2022	2023
O‘zbekiston Respublikasi	118749	136539	200951	246687	398133	475197	528929	592371
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	4841	6894	9835	12234	18404	21968	23721	26692
Andijon	13237	14854	18070	24835	30740	36726	40474	44658

Buxoro	6560	8499	12360	12082	23459	28233	31160	33686
Jizzax	3927	4068	7243	9722	17190	20993	22714	25847
Qashqadaryo	9318	11792	15627	19570	25259	30180	36168	41612
Navoiy	3823	4331	7024	8127	17067	20133	22711	25179
Namangan	8494	7754	13207	16698	25909	30882	33422	36914
Samarqand	11153	13995	15161	17610	31354	38946	46667	54163
Surxondaryo	7117	9183	12367	12259	19220	25367	28291	31427
Sirdaryo	3406	4720	6496	8195	13169	15425	15920	17259
Toshkent	9332	11307	16981	23954	38523	46173	50296	55472
Farg`ona	11138	11039	16879	21795	35379	42241	46622	52746
Xorazm	6488	5481	10527	13003	18614	21979	25160	28904
Toshkent sh.	19915	22622	39174	46603	83846	95951	105603	117812

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi



2.3. Xususiy sektorning rivojlanishi va barqaror iqtisodiy o'shishni ta'minlash.

XXI asr boshlarida iqtisodiyotni samarali faoliyat yuritishining asosi mulk shakllarini plyuralizmi hisoblanadi. Mulq shakllarini mavjudligi bozorda sog'lom raqobatni shakllanishiga va korxonalar samaradorligini oshirishga ta'sir ko'rsatadi. Milliy iqtisodiyotda davlat sektori past samaradorlikka ega bo'lganligi uchun qisqarish tendensiyasiga ega. Shu bilan bir qatorda xususiy sektor iqtisodiy krizislar sharoitida vujudga keladigan muammolarni hal etish uchun yetarli kuchga ega emas. Shuning uchun vujudga keladigan muammolarni xususiy sektor mustaqil hal qila olmasa unga davlat sektori yordamga kelishi kerak. Jahon amaliyoti ko'rsatishicha, xususiy korxonalaradan farqli o'laroq davlat korxonalar samarasiz ishlaydi va past rentabelli hisoblanadi. Xususiy sektor nisbatan mobil bo'lib texnologik o'zgarishlar tez moslashadi va innovatsiyani joriy etadi. Davlat samarali faoliyat yurita ololmaydigan iqtisodiyot tarmoqlarida xususiy sektor tomonidan tartibga solinishi kerak. Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi nisbat davlat tomonidan amalga oshiradigan davlat mulkini xususiylashtirish va milliy lashtirish tadbirlari bilan belgilanadi.

3-MAVZU. MONOPOLIYAGA QARSHI SIYOSAT VA RAQOBAT MUHITINING RIVOJLANISHI

Reja:

1. Raqobatning mohiyati, shakllari va usullari
2. Monopoliyalarning iqtisodiy asoslari va ularning turlari
3. O‘zbekistonda raqobatchilik muhitining vujudga kelishi va monopoliyaga qarshi qonunchilik

☞ **Tayanch iboralar:** raqobat, sof raqobatlashgan bozor, monopol raqobatlashgan bozor, monopoliya, oligopoliya, monopsoniya, duopoliya, tabiiy monopoliya, monopoliyaga qarshi qonunlar

3.1. Raqobatning mohiyati, shakllari va usullari

Raqobat bozor iqtisodiyotining va umuman tovar xo‘jaligining eng muhim belgisi, uni rivojlantirish vositasi hisoblanadi. Raqobatning iqtisodiy mazmunini tushunib olish unga turli tomondan yondashishini talab qiladi. **Mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilar (korxonalar) o‘rtasidagi raqobat** tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keltiradigan narxda sotish, umuman iqtisodiyotda o‘z mavqeini mustahkamlash uchun kurashdan iborat. Bunda ular kerakli ishlab chiqarish vositalari, xomashyo va materiallar sotib olish, ishchi kuchini yollash uchun ham kurashadi. Ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi raqobat pirovardida iste‘molchilarni o‘ziga jalb etish uchun kurashni ham anglatadi.


Resurslarni yetkazib beruvchilar o‘zlarining iqtisodiy resurslarini (kapital, tabiiy resurslar, ishchi kuchi) yuqori narxlarda sotish uchun raqobatlashadilar. Ishlab chiqaruvchilar va resurslarni yetkazib beruvchilar o‘rtasidagi raqobat bozor munosabatlari rivojlangan, iqtisodiyot to‘liq erkinlashgan sharoitda yorqin namoyon bo‘ladi.

Raqobat **iste‘molchilar o‘rtasida** ham yuz beradi: ular tovarlarni qulay va arzon narxlarda sotib olishga harakat qiladilar, ya‘ni xaridorlar har bir sarflangan pul birligi evaziga ko‘proq nafilikka ega bo‘lishga harakat qiladilar. Arzon va sifatli tovarni sotib olish uchun kurashadilar. Shunday qilib, raqobat ko‘p qirrali iqtisodiy hodisa bo‘lib, u bozorning barcha sub‘ektlari o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalaydi. **Raqobat – bozor sub‘ektlari iqtisodiy manfaatlarining to‘qnashuvidan iborat bo‘lib, ular o‘rtasidagi yuqori foyda va ko‘proq nafilikka ega bo‘lish uchun kurashni anglatadi.**

Bu munosabatlarni qiymatning mehnat va naflilik nazariyalarini sintez qilish usulini davom ettirgan holda quyidagi ko‘rinishda ifodalash mumkin (1-chizma).

1-chizma

Raqobat ishtirokchilarining asosiy maqsadlari



Chizmadan ko‘rinadiki, ishlab chiqaruvchilar sarflangan xarajatlarning har bir birligi evaziga ko‘proq foyda olish maqsadida raqobatlashadilar. Mana shu foyda orqasidan quvish natijasida ular orasida tovarlarni sotish doiralarini kengaytirish, qulay bozorlar, arzon xomashyo, energiya va arzon ishchi kuchi manbalariga erishish uchun kurash boradi. O‘z navbatida xaridorlar, ya‘ni iste‘molchilar sarflagan har bir so‘m xarajati evaziga ko‘proq naflilikka ega bo‘lish uchun kurashadilar, ularning har biri arzon, sifatli tovar va xizmatlarga ega bo‘lishga harakat qiladi.

Ishlab chiqaruvchilarning faoliyat ko‘rsatuvchi tadbirkor va mulk egasi sifatida erkin va mustaqil bo‘lishi raqobatning iqtisodiy asosini tashkil etadi. Chunki har bir mulk egasining o‘z manfaati bo‘lib, ular shu manfaatga erishish uchun intiladi. Mulk egasining tovar ishlab chiqarish va barcha boshqa sohalardagi faoliyati shu manfaatga bo‘ysundirilgan bo‘ladi. Bu jihatdan qaraganda raqobat erkin iqtisodiy faoliyat qiluvchi sub‘ektlar manfaatlarining to‘qnashuvidan iborat bo‘lishini aniq tavsiflaydi. Raqobat mavjud bo‘lishining boshqa sharti tovar-pul munosabatlarining ma‘lum darajada rivojlangan bozor tizimida amal qilishidir.

Raqobatning mazmuni uning vazifalarini ko‘rib chiqish orqali yanada kengroq namoyon bo‘ladi. Hozirgi bozor iqtisodiyotida raqobatning quyidagi asosiy vazifalarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- 1) tartibga solish vazifasi;
- 2) resurslarni joylashtirish vazifasi;
- 3) innovatsion vazifa;
- 4) moslashtirish vazifasi;
- 5) taqsimlash vazifasi;
- 6) nazorat qilish vazifasi.

Raqobatning **tartibga solish vazifasi** ishlab chiqarishni talab (iste‘mol)ga muvofiqlashtirish maqsadida taklifga ta‘sir o‘tkazishdan iborat. Aynan shu vazifa yordamida iqtisodiyotda taklifning talab orqali, ishlab chiqarish tarkibi va hajmining yakka tartibdagi va ijtimoiy ehtiyojlar orqali belgilanishiga erishiladi, ya‘ni iqtisodiyot bozor qonunlari asosida tartibga solinadi.

Raqobatning **resurslarni joylashtirish vazifasi** ishlab chiqarish omillarini ular eng ko‘p samara beradigan korxonalar, hudud va mintaqalarga oqilona joylashtirish imkonini beradi.

Raqobatning **innovatsion vazifasi** fan-texnika taraqqiyoti yutuqlariga asoslanuvchi hamda bozor iqtisodiyoti sub‘ektlarining rivojlanishini taqozo etuvchi turli ko‘rinishdagi yangiliklarning joriy etilishini anglatadi.

Raqobatning **moslashtirish vazifasi** korxonalar (firma)larning ichki va tashqi muhit sharoitlariga ratsional tarzda moslashishiga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularning shunchaki o‘zini-o‘zi saqlab, iqtisodiy jihatdan yashab qolishidan xo‘jalik faoliyati sohalarining ekspansiyasi (kengayishi)ga o‘tishini bildiradi.

Raqobatning **taqsimlash vazifasi** ishlab chiqarilgan ne‘matlar yalpi hajmi (yalpi ichki mahsulot)ning iste‘molchilar o‘rtasida taqsimlanishiga bevosita va bilvosita ta‘sir o‘tkazadi.

Nihoyat, raqobatning **nazorat qilish vazifasi** bozordagi ba‘zi ishtirokchilarning boshqa bir ishtirokchilar ustidan monopolistik hukmronlik o‘rnatishiga yo‘l qo‘ymaslikka yo‘naltiriladi.

Raqobat kurashining mazmuni to‘g‘risida to‘laroq tushunchaga ega bo‘lish uchun uning asosiy shakllari va belgilarini ko‘rib chiqish zarur. **O‘z miqyosiga ko‘ra** raqobat ikki turga – tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobatga bo‘linadi.

Tarmoq ichidagi raqobat tovar ishlab chiqarish va sotishning qulayroq sharoitiga ega bo‘lish, qo‘shimcha foyda olish uchun bir tarmoq korxonalarini o‘rtasida boradi. Har bir tarmoqdagi mavjud korxonalarining texnika bilan ta‘minlanish va mehnat unumdorligi darajalari turlicha bo‘lganligi sababli, ushbu korxonalarda ishlab chiqarilgan tovarlarning individual (alohida) qiymati bir xil bo‘lmaydi.

Tarmoq ichidagi raqobat tovarlarning ijtimoiy qiymatini, boshqacha aytganda, bozor qiymatini aniqlaydi va belgilaydi. Bu qiymat, odatda, o‘rtacha sharoitda ishlab chiqarilgan va muayyan tarmoq tovarlarining ahamiyatli qismini tashkil etadigan tovarlarning qiymatiga mos keladi.

Tarmoq ichidagi raqobat natijasida texnika darajasi va mehnat unumdorligi yuqori bo‘lgan

korxonalar qo‘shimcha foyda oladilar va aksincha, texnika jihatdan nochor korxonalar esa ishlab chiqarilgan tovar qiymatining bir qismini yo‘qotadilar va zarar ko‘radilar.

Tarmoqlararo raqobat turli tarmoqlar korxonalari o‘rtasida eng yuqori foyda normasi olish uchun olib boriladigan kurashdan iborat. Bunday raqobat kapitalarning foyda normasi kam bo‘lgan tarmoqlardan foyda normasi yuqori tarmoqlarga oqib o‘tishiga sabab bo‘ladi. Yangi kapitallar ko‘proq foyda keltiruvchi sohalarga intilib, ishlab chiqarishning kengayishiga, taklif ko‘payishiga olib keladi. Shu asosda, narxlar pasaya boshlaydi. Shuningdek, foyda normasi ham pasayadi. Kam foyda keltiruvchi tarmoqlardan kapitalning chiqib ketishi teskari natijaga olib keladi: bu yerda ishlab chiqarish hajmi o‘zgaradi, tovarlarga bo‘lgan talab ular taklif qilishidan oshib ketadi, buning oqibatida narxlar ko‘tariladi, shu bilan birga foyda normasi oshadi. Natijada tarmoqlararo raqobat ob‘ektiv ravishda qandaydir dinamik muvozanatni keltirib chiqaradi. Bu muvozanat kapital qaerga sarflanganligidan qat‘iy nazar, teng kapital uchun teng foyda olinishiga intilishni ta‘minlaydi. Demak, tarmoqlararo raqobat kapital qaysi tarmoqqa kiritilmasin, xuddi shu tarmoq foyda normalarini o‘rtacha foyda normasiga «baravrlashtiradi».

Iqtisodiy adabiyotlarda **bir tarmoq ichidagi raqobatning** to‘rtta shakli alohida ajratib ko‘rsatiladi. Bular sof raqobat, sof monopoliya, monopolistik raqobat va oligopoliyadir.

Sof raqobat sharoitida bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqda juda ko‘p sonli korxonalar mavjud bo‘ladi. Yuqori darajada tashkil qilingan bozorda ko‘plab sotuvchilar o‘zlarining mahsulotlarini taklif qiladilar. Ayni paytda, ushbu mahsulot xaridor va iste‘molchilarining soni ham juda ko‘p bo‘ladi. Sof raqobatli bozorda alohida korxonalar mahsulot narxi ustidan nazorat o‘rnata olmaydi yoki nazorat sezilarsiz darajada bo‘ladi. Chunki har bir korxonada umumiy ishlab chiqarish hajmi uncha katta bo‘lmaydi. Shu sababli alohida korxonada ishlab chiqarishning ko‘payishi yoki kamayishi umumiy taklifga, demak mahsulot narxiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmaydi. Sof raqobat sharoitida yangi korxonalar tarmoqqa erkin kirishi, tarmoqda mavjud bo‘lgan korxonalar esa uni erkin tashlab chiqishi mumkin. Xususan, yangi korxonalarining paydo bo‘lishi va ularning raqobatli bozorda mahsulotlarini sotishga huquqiy, texnologik, moliyaviy va boshqa jiddiy iqtisodiy to‘siqlar bo‘lmaydi.

Sof monopoliyada tarmoq bitta firmadan iborat bo‘lganligi sababli, u mavjud mahsulot (xizmat)ning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi va yakkahukmronlik shakllanadi. Monopoliya sharoitida firma narx ustidan sezilarli nazoratni amalga oshiradi. Buning sababi oddiy bo‘lib, u mahsulot (xizmat)ning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi va demak, taklifning umumiy hajmi ustidan nazorat qiladi.

Monopolistik raqobat o‘z ichiga ham monopoliya, ham raqobat unsurlarini oladi. Bunda tarmoqdagi bir turdagi mahsulotning o‘nlab ishlab chiqaruvchilari bir-birlari bilan qulay narx hamda ishlab chiqarish hajmiga erishish borasida raqobatlashadilar. Biroq, ayni paytda, har bir ishlab chiqaruvchi o‘z mahsulotini tabaqalashtirish, ya‘ni shu turdagi boshqa mahsulotlardan qaysi bir jihati (sifat darajasi, shakli, qadoqlanishi, sotish sharoitlari va h.k.) bo‘yicha farqlantirish orqali uning monopol ishlab chiqaruvchisiga aylanadi.

Oligopoliya – tarmoqda u qadar ko‘p bo‘lmagan korxonalarining mavjud bo‘lishi va hukmronlik qilishidir. Bu oligopoliyaning eng muhim belgisi bo‘lib, qaysi tovarlar va xizmatlar bozorida nisbatan kam sonli ishlab chiqaruvchilar hukmronlik qilsa, shu tarmoq oligopolistik tarmoq hisoblanadi.

Oligopolistik tarmoq bir xil yoki tabaqalashgan mahsulot ishlab chiqarishi mumkin. Ko‘pchilik sanoat mahsulotlari – po‘lat, mis, alyuminiy, qo‘rg‘oshin, temir va shu kabilar fizik ma‘noda bir turdagi mahsulotlar hisoblanadi va oligopoliya sharoitida ishlab chiqariladi. Iste‘mol tovarlari – avtomobillar, kir yuvish vositalari, sigaretlar, maishiy elektr buyumlari va shu kabilarni ishlab chiqaruvchi tarmoqlar tabaqalashgan oligopoliya hisoblanadi.

Oligopoliya sharoitida korxonalar o‘rtasidagi raqobat o‘zaro bog‘liq bo‘ladi. Oligopolistik tarmoqda hech qaysi firma o‘zining narx siyosatini mustaqil o‘zgartirishga botina olmaydi.

Biz qarab chiqqan raqobatning to‘rtta shaklining har biri milliy iqtisodiyotda alohida-alohida, ya‘ni sof holda uchramaydi. Iqtisodiyot sohasini batafsil o‘rganish, cheksiz ko‘p har xil raqobatli vaziyatlar mavjudligi sharoitida, ikkita bir xil tarmoqni topish qiyinligini ko‘rsatadi. Hozirda turli

darajadagi monopolistik tuzilmalar rivojlanib borishi bilan ular o'rtasidagi raqobatning shakllari ham turli ko'rinishlarda namoyon bo'lib bormoqda. Jumladan, **turli monopollashuv darajasidagi tuzilmalar o'rtasida mavjud bo'lishiga ko'ra** quyidagi raqobat turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) monopollashmagan korxonalar o'rtasidagi raqobat;
- 2) monopoliyalar hamda monopolistik birlashmalarga kirmagan ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobat;
- 3) turli monopoliyalar o'rtasidagi raqobat;
- 4) monopolistik birlashmalar ichidagi raqobat.

Shuningdek, iqtisodiy adabiyotlarda **g'irrom va halol raqobatlashuv** usullari ham ajratib ko'rsatiladi. **Raqobatlashuvning noan'anaviy, jamiyat tomonidan e'tirof etilmagan, ijtimoiy ahloq qoidalari doirasidan chetga chiquvchi, noiqtisodiy (ya'ni, jismoniy kuch ishlatish, majburlash, raqiblarning obro'siga putur yetkazish va h.k.) usullaridan foydalanish g'irrom raqobat deb yuritiladi.** G'irrom raqobat orqali firmalar o'z raqiblarining tarmoqqa kirib kelishini tajovuzkorona va shafqatsiz bartaraf qilishi mumkin. Banklarni, moddiy resurs ta'minotchilarini kredit va materiallar yetkazib berishdan voz kechishga majburlash, yetakchi mutaxassislarni og'dirib olish, narxni keskin pasaytirish g'irrom raqobatning oddiy usullaridir.

Halol raqobat – raqobat kurashida jamiyat tomonidan tan olingan iqtisodiy usullarni qo'llash, o'zining maqsad va manfaatlariga erishishda umumjamiyat manfaatlariga zid keluvchi holatlarni qo'llamaslik kabi qoidalarga asoslanadi. Shu o'rinda halol raqobatning quyidagi belgilarini ham ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- qalbaki bellashuv, majburiy safarbarlikni tan olmaydi;
- boqimandalik, befarqlik, yuzakichilik, ko'zbo'yamachilik kabi salbiy holatlarga barham beradi;
- qarindosh-urug'chilikni, oshna-og'aynigarchilikni, tanish-bilishlikni, ma'muriy-buyruqbozlikni tan olmaydi³.

Raqobat kurashining ikki usuli farqlanadi: narx vositasidagi raqobat va narxsiz raqobat.

Narx vositasida raqobatlashuvda kurashning asosiy usuli bo'lib ishlab chiqaruvchilarning o'z tovarlari narxini boshqa ishlab chiqaruvchilarning shunday mahsulotlari narxiga nisbatan pasaytirishi hisoblanadi. Uning asosiy va eng ko'p qo'llaniladigan ko'rinishi – «narxlar jangi» deb ataladiki, bunda yirik ishlab chiqaruvchilar raqiblarini tarmoqdan siqib chiqarish uchun narxni vaqti-vaqti bilan yoki uzoq muddat pasaytirib turadi. Bu usulni qo'llash uchun ishlab chiqaruvchi boshqa raqiblariga qaraganda unumliroq texnologiyani kiritishi, malakaliroq ishchilarni yollashi va ishlab chiqarishni yaxshiroq tashkil qilishi kerak bo'ladi. Faqat shundagina uning tovarining individual qiymati bozor qiymatidan past bo'lib, mazkur tovar narxini pasaytirish imkonini beradi.

Narx vositasida raqobatlashish usullaridan biri – **demping narxlarni qo'llashdir.** Bunda milliy ishlab chiqaruvchilar o'zlarining tovarlarini boshqa mamlakatlarga ichki bozordagi narxlardan, ayrim hollarda tannarxidan ham past bo'lgan narxlarda sotadi. Shu orqali ular ichki bozorda narxlarning barqarorligiga erishish mamlakatdagi ortiqcha mahsulotni yo'qotish, yangi bozorlarga kirib olish va unda o'zlarining iqtisodiy mavqeini mustahkamlashga harakat qiladi.

Ayrim hollarda narx yordamida raqobatlashishning belgilangan narxlardan chegirma qilish, asosiy xarid qilingan tovarlarga boshqa tovarlarini qo'shib berish, muayyan hollarda imtiyozli narxlarni belgilash kabi usullaridan ham foydalaniladi.

Hozirgi davrda bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda narx yordamida raqobat qilish o'z o'rniga ega emas, chunki ishlab chiqaruvchilardan birining o'z mahsuloti narxini pasaytirishi uning raqobatchilarining ham shunday harakat qilishiga olib keladi. Natijada firmalarning bozordagi mavqei o'zgarmay, faqat tarmoq bo'yicha foyda hajmini kamaytiradi.

Narxsiz raqobat shu bilan tavsiflanadiki, bunda raqobat kurashining asosiy omili tovarlarning narxi emas, balki uning sifati, servis xizmat ko'rsatish, ishlab chiqaruvchi firmaning obro'-e'tibori hisoblanadi.

Narxsiz raqobat bilan bir vaqtda **yashirin narx yordamidagi raqobat** ham bo'lishi mumkin.

³ Абдуллаев Ё. Бозор иқтисодиёти асослари: 100 савол ва жавоб. – Т.: «Меҳнат», 1997, 58-59-б.

Bunday holatda yangi tovarlar sifatining oshishi va iste'mol xususiyatlarining yaxshilanishi ular narxlarining oshishiga qaraganda tez ro'y beradi. Hozirgi davrda bir turdagi mahsulotlarning ko'payishi ularni sotishni rag'batlantiruvchi reklama, tovar belgilari va fabrika muhrlaridan foydalanishni keltirib chiqarmoqda. Iste'mol bozorlarida qo'shimcha xizmat ko'rsatish orqali xaridorlarni o'ziga jalb qilish keng tarqalmoqda.


Narxsiz raqobatning tovar sifatini tabaqalashtirish kabi usuli ham mavjudki, bunda tovarlar bir xildagi ehtiyojni qondirishi va bir turga mansub bo'lishi, lekin turli-tuman iste'mol xossalari ega bo'lishi mumkin.

Tovarlar talabga nisbatan ortiqcha bo'lgan sharoitda ishlab chiqaruvchilar tovarlarini kreditga sotish usulidan foydalanib raqiblaridan ustun kelishlari mumkin. Bunda dastlab, tovar narxining faqat bir qismi to'lanadi, uning qolgan qismi esa shartnomada kelishilgan aniq muddatlarda to'lanadi.

Fan-texnika taraqqiyoti avj olgan hozirgi sharoitda, **texnika va texnologiyaning eng yangi yutuqlari ustidan nazorat qilish** uchun kurash raqobatning asosiy usullaridan biriga aylanib bormoqda. Bundan tashqari, ishlab chiqaruvchi korxonalar xaridorlarni jalb qilish maqsadida uzoq muddat foydalaniladigan iste'mol tovarlariga kafolatli va kafolatdan keyingi xizmat ko'rsatishni amalga oshirmoqdalar. Masalan, kompyuter ishlab chiqaruvchi firma o'z mahsulotini shunchaki sotish bilan cheklanmasdan, balki uni o'rnatib berish, korxonada xodimlarini kompyuterdan foydalanishga o'rgatish, kafolatlangan muddatda va undan keyingi davrda ta'mir ishlarini bajarish, texnikaviy xizmat ko'rsatish kabilarni ham amalga oshiradi; mahsulot xossa va o'lchamlarini buyurtmachi ehtiyojlariga yaqinlashtiradi.

Narxsiz raqobat usullari ichida **marketing** muhim ahamiyatga ega bo'lib, u mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonini talabga moslashtiruvchi tadbirlar tizimidan iborat. Bozor iqtisodiyoti sharoitida talabni yaxshi o'rgangan va iste'molchilar ehtiyojlarini to'laroq qondira oladigan korxonalar har doim raqobat kurashida yutib chiqadi.

Yirik ishlab chiqaruvchilar bozordagi vaziyatni o'zgartirish uchun o'zlarining ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni kamaytirib tovar taklifini qisqartiradilar. Shu sababli iqtisodiy beqarorlik davrlarida ham narx barqarorligicha qolaveradi. Shunday qilib, monopoliyalar hukmron bo'lgan sharoitda narxsiz raqobat muhim o'rin tutadi. Buning sababi shundaki, birinchidan, monopoliyalar tovar sifatini oshirish, iste'molchilarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash yo'li bilan sotiladigan tovar hajmini ko'paytirishi mumkin. Ikkinchidan, ular moliyaviy jihatdan kuchli bo'lganligi sababli mahsulotini yangilash, ishlab chiqarishni qayta jihozlash va reklamaga zarur bo'lgan mablag'ni sarflay oladilar.



Mukammal raqobatlashgan bozor xususiyatlari:

- sotuvchilar va xaridorlar soni juda ko'p;
- bir firmaning bozordagi ulushi juda kam
- firmalar va xaridorlar mahsulot narxiga ta'sir qila olmaydilar, uni boricha qabul qilishadi;
- raqobatlashgan bozordagi talabning narx bo'yicha elastikligi cheksizdir, yani absolyut elastik

- bozorga yangi sotuvchilarning kirishi va sotuvchilarning bozordan chiqishi cheklanmagan;
- sotuvchilar birgalikda harakat qilish strategiyasini ishlab chiqmaydi;
- to'liq axborot olish imkoniyati mavjud.
- raqobatlashgan bozor amaliyotda kamdan kam uchraydi va ayrim bozorlarga (masalan, **birlamchi qishloq xo'jaligi mahsulotlari, qimmatli qog'ozlar, valyuta bozorlari**) unga yaqinlashadi.
- mukammal raqobat **real iqtisodiy jarayonlar samardorligini taqqoslash va baholashda** boshlang'ich va etalon **model** vazifasini bajaradi, shu sababdan ham u **nazariy jihatdan** o'rganiladi.

Mukammal raqobatlashgan bozor afzalliklari:

- Uzoq muddatli oraliqda firma va tarmoq muvozanati **MC=MR=AC=P** bo'lganda kuzatiladi.
 - Mukammal raqobat cheklangan resurslarni samarali taqsimlashga yordam beradi, ya'ni ehtiyojlar maksimal darajada qondiriladi. Bu **MC=P** bo'lgan sharoitda ta'minlanadi.
 - Mukammal raqobat firmalarni **minimal o'rtacha xarajatlar** bilan mahsulot ishlab chiqarishga va unga teng bo'lgan narxda sotishga majbur qiladi.
 - Mukammal raqobatlashgan bozor kamchiliklari:
 - sof raqobat ehtiyojlarning to'lovga qobiliyatligi va daromadlarning taqsimlanishiga bog'liq.
 - sof raqobat har bir ist'molchiga alohida sotib bo'lmaydigan, jamiyat tomonidan bir vaqtning o'zida birgalikda iste'mol qilinadigan ijtimoiy ne'matlar (yong'in havfsizligi, milliy mudofaa) ishlab chiqarishni hisobga olmaydi.
 - raqobatlashgan bozorda barcha firmalar ham ilmiy-texnik jarayonlarni tezlashtiruvchi resurslarga (ITTKI) e'tibor qarata olishmaydi.
 - Sof raqobat mahsulotlarni standartlashtiradi, iste'molchi didini hisobga olmaydi.

2. Monopoliyalarning iqtisodiy asoslari va ularning turlari

Iqtisodiyotda bozor mexanizmining samarali amal qilishi va raqobat muhitining ta'minlanishi monopoliyalar, ularning kelib chiqish sabablari va amal qilish xususiyatlarini ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Monopoliya tushunchasiga turli o'quv adabiyotlarida turlicha ta'rif beriladi. Jumladan, ba'zi o'rinlarda uni «davlat, korxonalar, tashkilotlar, sotuvchilarning qandaydir xo'jalik faoliyatini amalga oshirishdagi mutlaq huquqi»⁴ sifatida qaralsa, boshqa holatlarda «faoliyatning u yoki bu sohasida shaxs yoki kishilar guruhining har qanday (ba'zi adabiyotlarda – yakka) hukmronlik holati»⁵ deb ta'riflanadi. Bu ta'riflardagi monopoliyaning «mutlaq huquq» yoki «har qanday yoki yakka hukmronlik holati» kabi tavsiflari uning mohiyatini aniq yoritib berolmasligi sababli, uni quyidagicha ta'riflash o'rinli deb hisoblaymiz: **monopoliya – monopol yuqori narxlarni o'rnatish hamda monopol yuqori foyda olish maqsadida tarmoqlar, bozorlar va yaxlit makroiqtisodiyot ustidan hukmronlikni amalga oshiruvchi yirik korxonalar (firma, korporatsiyalar)ning birlashmalari**⁶.

⁴ Экономическая теория: Учебник. - Изд., испр. и доп. / Под общ. ред. акад. В.И.Видяпина, А.И.Добрынина, Г.П.Журавлевой, Л.С.Тарасевича. – М.: ИНФРА-М, 2005, 121-б.

⁵ Куликов Л.М. Экономическая теория: учеб. – М.: ТК Вебли, Изд-во Проспект, 2005, 191-б.; Тожибоева Д. Иктисодиёт назарияси: Олий ўқув юртлари талабалари учун ўқув кўлланма. Т.: «Ўқитувчи», 2002, 246-б.

⁶ Бу мазмундаги таърифлар куйидаги манбаларда ҳам берилган: Шишкин А.Ф. Экономическая теория: Учебное пособие для вузов. 2-е изд. Кн.1. – М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 1996, 597-б.; Борисов Е.Ф.

«Monopoliya» atamasining kelib chiqishi bozorga oid tushunchalardan (ya'ni, grekcha «monoc» - yagona, bitta va «poleo» - cotaman) tarkib topsada, biroq uning iqtisodiy asoslari aslida ishlab chiqarishga borib taqaladi.

Monopoliyalar vujudga kelishining moddiy asosi ishlab chiqarishning to'planishi hisoblanadi. **Ishlab chiqarishning to'planishi ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi hamda mahsulot ishlab chiqarish hajmining yirik korxonalarda to'planishini namoyon etadi.** Ishlab chiqarish to'planishining asosiy sababi bo'lib olinayotgan foyda hajmining ko'payishi hisoblanadi. Foydani muntazam ravishda ko'paytirib borish maqsadida tadbirkor olingan qo'shimcha mahsulot (foyda)ning bir qismini kapitallashtiradi, ya'ni unga qo'shimcha ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi sotib oladi. Bu esa ba'zi bir korxonalarining o'sishi hamda ishlab chiqarish miqyoslarining kengayishiga olib keladi. Shu bilan birga raqobat amaldagi kapitalning ixtiyoriy yoki majburiy birlashtirish, markazlashtirish tendensiyasini keltirib chiqaradi. Shunday qilib, ishlab chiqarish to'planishining moddiy asosi bo'lib kapitalning to'planishi va markazlashuvi hisoblanadi.

Kapitalning to'planishi – bu qo'shimcha qiymatning bir qismini jamg'arish (kapitallashtirish) natijasida kapital hajmining oshishidir. Bu jarayon quyidagi ko'rsatkichlar orqali tavsiflanadi: korxonadagi ishlovchilar soni, korxonaning ishlab chiqarish quvvati, qayta ishlanayotgan xomashyo miqdori, tovar aylanmasi hajmi, foyda hajmi. Kapitalning to'planishi kapitalning markazlashuvi jarayoni bilan yanada to'ldiriladi. **Kapitalning markazlashuvi – bu bir kapital tomonidan boshqa birining qo'shib olinishi yoki bir qancha mustaqil kapitalning aksiyadorlik jamiyati shaklida ixtiyoriy birlashishi orqali kapital hajmining o'sishidir.**

Ishlab chiqarishning gorizontal va vertikal to'planishi farqlanadi.

Ishlab chiqarishning gorizontal to'planishi – bu milliy iqtisodiyotning ma'lum tarmog'ida doirasidagi korxonalar va firmalarning yiriklashuvidir. U erkin raqobat davri, shuningdek, XX asrning boshlarida ishlab chiqarish to'planishining asosiy shakli sifatida maydonga tushgan edi.

Ishlab chiqarishning vertikal to'planishi – bu milliy iqtisodiyotdagi bir necha o'zaro bog'liq tarmoqlarda mahsulot ishlab chiqarishning to'planishidir. U ilmiy-texnika inqilobi sharoitlarida keng rivojlandi.

Ishlab chiqarishning to'planishi o'z rivojining ma'lum darajasida monopoliyalarning paydo bo'lishiga olib keladi. Ishlab chiqarishning to'planishi hamda monopoliyalarning paydo bo'lishi o'rtasidagi ichki aloqalar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1) tarmoqlarda bir necha yirik korxonalarining hukmron mavqega ega bo'lishi ularning bir-biri bilan kelishuviga hamda monopolistik birlashmalar tuzishiga imkon yaratadi;

2) yirik korxonalar o'rtasidagi raqobat juda qaltis bo'lib, ular uchun katta miqyosdagi yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Shunga ko'ra, raqobatni cheklash, tovarlarga yuqori narxlar belgilash va yuqori foyda olish uchun yirik ishlab chiqaruvchilarning monopolistik ittifoqlarga birlashishi lozim bo'ladi.

Monopoliyalarning vujudga kelishida ishlab chiqarishning to'planishidan tashqari yana bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi:

1) davlatning proteksionistik bo'xona siyosati. U chet eldagi raqobatchilarning ichki bozorga kirish imkoniyatini yo'qotib, monopoliyalarning paydo bo'lishiga sharoit yaratadi;

2) banklarning faoliyati va moliyaviy siyosati. Banklar sanoat monopoliyalarining jadal o'sishiga imkon beradi.

Monopoliyalarning mohiyatini ochib berishda uning turlarini ko'rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Monopoliyalarning turlarini bir necha mezonlarga ko'ra ajratish mumkin.

1. Bozorni qamrab olish darajasiga ko'ra: sof monopoliya, oligopoliya va monopsoniya.

Sof monopoliya – tarmoqdagi yagona ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi yakkahukmronlik holati hisoblanadi. O'zbekistonda sof

Экономическая теория: учеб. – 2-е изд., перераб. и доп. - М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2005, 208-б.; Основы экономической теории. Политэкономия: Учебник /Под ред. д-ра экон. наук, проф. Д.Д.Москвина. Изд. 3-е, исправл. – М.: Едиториал УРСС, 2003, 499-б.

monopoliyalar sifatida «O‘zbekiston havo yo‘llari» DAK, «O‘zbekiston temir yo‘llari» DAK, Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasini misol keltirish mumkin. Darhaqiqat, ular o‘z tarmoqlaridagi tegishli faoliyatlarning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadilar. Shuningdek, ba’zi hollarda tarmoqdagi monopolist ishlab chiqaruvchilar sonining ko‘payib borishi monopolistik raqobat holatining vujudga kelishiga sabab bo‘ladi. **Monopolistik raqobat – tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni ko‘p hamda ular o‘rtasida ma’lum darajada raqobat mavjud bo‘lgan, biroq har bir ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchi o‘z tovar yoki xizmatining alohida, maxsus xususiyatlari mavjudligi sababli ularning narxi va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi ma’lum darajada hukmronlik holati hisoblanadi.** Bunga misol tariqasida ko‘plab mebel, kiyim-kechak turlari, kir yuvish vositalari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaruvchilarini keltirish mumkin.

Oligopoliya – tarmoqdagi bir necha yirik ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi hukmronlik holati hisoblanadi. Oligopolist ishlab chiqaruvchilarga O‘zbekistonda sement (asosan Bekobod, Quvasoy, Ohangaron, Navoiy shaharlarida joylashgan), ko‘mir (Angren shahri, Surxondaryo viloyatining Sariosiyo (Sharg‘un) va Boysun (To‘da) tumanlarida joylashgan) ishlab chiqarishni misol keltirish mumkin.

Monopsoniya – tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni juda ko‘p bo‘lib, ular tovar yoki xizmatlarining yagona iste’molchisi yoki xaridori mavjud bo‘lgan sharoitdagi yakkahukmronlik holati hisoblanadi. Bunga «O‘zDEUavto» korxonasi yaqqol misol bo‘la oladi. Mazkur yirik korxonada mamlakatimizda yengil avtomobillar ishlab chiqarishda zarur bo‘lgan ko‘plab ehtiyot va butlovchi qismlarni ularning nisbatan mayda ishlab chiqaruvchilaridan sotib olishda yakkahukmronlik mavqeiga ega bo‘ladi.

2. Monopoliyaning vujudga kelishi sababi va tavsifiga ko‘ra: tabiiy monopoliya, legal monopoliya, sun‘iy monopoliya farqlanadi.

Tabiiy monopoliya tarkibiga kamyob va ishlab chiqarishning erkin tarzda takror hosil qilib bo‘lmaydigan unsurlari (masalan, nodir metallar, foydali qazilmalar va h.k.)ga ega bo‘lgan mulkdorlar va xo‘jalik tashkilotlari kiradi. Shuningdek, mazkur monopoliya tarkibiga o‘ziga xos texnologiyaning qo‘llanishi sababli raqobatni rivojlantirib bo‘lmaydigan ba’zi bir tarmoqlar va ishlab chiqarish turlari ham kiritiladi.

Tabiiy monopoliya – korxonaning texnologik xususiyatlari sababli mahsulotga bo‘lgan talabni qondirish raqobat mavjud bo‘lmagan sharoitda samaraliroq amalga oshiriluvchi tovar bozorining holati. Bunday samaradorlik ishlab chiqarish hajmining ko‘payib borishi bilan tovar birligiga to‘g‘ri keluvchi xo‘jalik xarajatlarining ahamiyatli darajada pasayib borishida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, tabiiy monopoliya sub‘ektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar iste’molini boshqa turdagi mahsulotlar bilan almashtirib bo‘lmaydi.

Legal (qonuniy) monopoliya – bu qonuniy tarzda tashkil etiluvchi monopolistik holat. Ular tarkibiga raqobatdan himoya qiluvchi quyidagi monopoliya shakllarini kiritish mumkin:

1) patent tizimi – bu ixtirochi va mualliflar tomonidan yaratilgan ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalarini tasdiqlovchi hamda ularga mutlaq huquqni taqdim etish tizimi. Bu jarayon maxsus guvohnomalar – patentlar orqali amalga oshiriladi;

2) mualliflik huquqi – ilmiy, badiiy va san‘at asarlari, ijro san‘ati fonogrammalari, ko‘rsatuvlar, efir to‘lqini yoki kabel orqali tasvir uzatish kabilarni yaratish va ulardan foydalanish munosabatlarini qonuniy tarzda tartibga solish shakli. Mualliflik huquqi faqat mualliflar tomonidan o‘z mahsulotlarini ma’lum vaqtga yoki butunlay sotish, ulardan nusxa olish va ko‘paytirishga ruxsat berish imkonini ta’minlaydi;

3) tovar belgilari – bu savdo belgilari, nishonlari, maxsus ramzlari, nomi va boshqalarni ro‘yxatga olish, huquqiy jihatdan himoya qilish va ulardan foydalanish bo‘yicha paydo bo‘lgan munosabatlarni qonuniy tarzda tartibga solish shakli.

Sun‘iy monopoliya – monopol foyda olish maqsadida tashkil etiluvchi birlashmalarning shartli (tabiiy monopoliyalardan ajratib turish uchun) nomi.

Sun‘iy monopoliya o‘z manfaatlarini yo‘lida bozor muhiti tuzilishini ataylab o‘zgartiradi, ya’ni: - bozorga yangi raqiblarning kirib kelishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun turli to‘siqlar hosil qiladi

(xomashyo va energiya manbalarini egallab oladi; banklarning yangi korxonalariga kredit berishini taqiqlashga harakat qiladi va boshqalar);

- ishlab chiqarishning eng yuksak darajadagi texnologiyasiga erishib, qolgan raqiblarining bu darajaga chiqishiga imkon bermaydi;

- ishlab chiqarish miqyosi samarasidan unumliroq foydalanish imkonini beruvchi nisbatan yirik hajmdagi kapitalni qo'llaydi;

- o'z faoliyatini yuqori darajada reklama qilish orqali boshqa raqobatchilarni bozordan siqib chiqarishga harakat qiladi.

Cun'iy monopoliyalar kartel, sindikat, trest, konsorsium, konsern kabi aniq shakllarda namoyon bo'ladi.

Kartel – bitta sanoat tarmog'idagi bir necha korxonalarining uyushmasi bo'lib, uning ishtirokchilari ishlab chiqarish vositalari va mahsulotlariga o'z mulkiy egaligini saqlab qoladi, yaratilgan mahsulotlarni sotish esa kvota, ya'ni mahsulot ishlab chiqarish umumiy hajmidagi har bir ishtirokchining ulushi, sotish narxlari, bozorlarning bo'lib olinishi va h.k. bo'yicha kelishuv asosida amalga oshiriladi.

Sindikat – bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi bir necha korxonalarining birlashmasi. Bunda ishlab chiqarish vositalariga mulkchilik birlashma ishtirokchilarining o'zida saqlanib qolgani holda, ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish maxsus tashkil etilgan yagona savdo tashkiloti orqali amalga oshiriladi.

Trest – ishlab chiqarish vositalari va tayyor mahsulotga birgalikdagi mulkiy egalikni ta'minlovchi ishlab chiqaruvchilarning yuridik shaxs ko'rinishidagi birlashmasi.

Konsorsium – tadbirkorlarning yirik moliyaviy operatsiyalarini birgalikda amalga oshirish maqsadida birlashuvi (masalan, yirik miqyosli loyihalarga juda katta miqdorda va uzoq muddatli kredit berish yoki investitsiyalar qo'yish).

Konsern – rasmiy jihatdan mustaqil bo'lgan, ko'p tarmoqli korxonalar (sanoat, savdo, transport va bank kabi turli soha korxonalari) ning majmuini o'z ichiga oluvchi birlashma. Odatda bunday birlashma ma'lum ishlab chiqarish faoliyatini bosqichma-bosqich ravishda amalga oshirish uchun zarur bo'lgan turli soha korxonalar va tashkilotlaridan tuziladi. Bunda bosh tashkilot qolgan ishtirokchilar faoliyati ustidan moliyaviy nazorat olib boradi. Hozirda sun'iy monopoliyalarning sanab o'tilgan shakllari orasida konsernlar keng tarqalgan.

Monopoliyaning iqtisodiy taraqqiyotga ta'sir qiluvchi ijobiy va salbiy tomoni mavjud. Uning **ijobiy tomoni** asosan quyidagi ikkita jihat orqali namoyon bo'ladi. Birinchidan, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, u ma'lum tarmoqlarda nisbatan samarali amal qiladi va xarajatlarning tejalishiga olib keladi. Ikkinchidan, monopolist bo'lmagan, mayda, raqobatlashuvchi soha korxonalariga nisbatan monopolistik korxonalarda ishlab chiqarishga ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini joriy etish uchun ko'proq rag'bat va imkoniyat mavjud bo'ladi. Chunki, uncha yirik bo'lmagan raqobatlashuvchi korxonalarining odatda moliyaviy jihatdan imkoniyatlari cheklangan bo'lib, ular ishlab chiqarishga yangiliklarni tatbiq etish orqali kelgusidagi daromadlarni oshirishdan ko'ra, ko'proq joriy daromadga e'tibor qaratadilar. Bundan tashqari, yangi g'oyalar raqiblar tomonidan juda tez o'zlashtirib olinadi va, buning oqibatida, bu g'oyalarni amalga oshirish xarajatlarini bir tomon qilgani holda, uning samarasidan barcha foydalanadi. Yirik monopolistik firmalarda moliyaviy imkoniyatlar keng bo'lib, innovatsiyadan olingan foyda ularning mualliflariga tegishi aniq kafolatlanadi. Monopoliyaning **salbiy tomoni** sifatida quyidagi jixatlarni ko'rsatish mumkin:

1) resurslarning oqilona taqsimlanmasligi. Bu holat monopoliyalarning yuqori foyda ketidan quvib, sun'iy ravishda ishlab chiqarishni cheklash vositasida narxlarni ko'tarishi, mahsulotlarning u qadar yaxshi bo'lmagan turlarini, past texnikaviy darajasini, past sifati hamda sotishning yomon sharoitlarini vujudga keltirishi orqali namoyon bo'ladi. Natijada, raqobat sharoitida amal qiluvchi iqtisodiyot samaradorligini bozor vositasida tartibga solish mexanizmi ishdan chiqadi.

Monopoliyalar bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy faoliyatlar erkin hamda oqilona tanlov imkoniyatidan mahrum bo'ladi, monopoliyalarning iqtisodiy jihatdan asoslanmagan shart-sharoit va narxlari tazyiqiga chiday olmaydi, ish faolligini pasaytirib, ba'zi hollarda xonavayron bo'ladilar. Oqibatda ishlab chiqarish qisqarib, ishsizlik va inflyasiya o'sadi, xo'jalikning izdan chiqishi

kuchayadi. Jamiyat boyligi resurslarning oqilona raqobatli-bozor taqsimoti sharoitida qo'lg'a kiritilishi mumkin bo'lgan miqdoriga qaraganda kamayib ketadi;

2) daromadlardagi tengsizlikning kuchayishi. Bu holat ham narxlarning monopol tarzda oshirilishi (pasaytirilishi) hamda yuqori foyda olinishi bilan bog'liq bo'lib, bu aholi qolgan qismi daromadlarining nisbatan kamayishiga olib keladi;

3) iqtisodiy turg'unlik va fan-texnika taraqqiyotining sekinlashuvi. Bunday holatning vujudga kelishi monopolistlarning raqobatchilar bosimini sezmasliklari hamda aksariyat hollarda yuqori foydani qo'shimcha urinishsiz o'zlarining bozordagi hukmronliklari hisobiga olishlari mumkin. Bu esa ularni ishlab chiqarishni ratsionallashtirish, uning samaradorligini oshirish imkoniyatlarini qidirish, mahsulot sifatini oshirish, uning assortimentini kengaytirish, FTTni rivojlantirish va xaridorlar manfaatlarini to'g'risida qayg'urish kabi xatti-harakatlardan qaytaradi;

4) iqtisodiyotda demokratik harakatlarning to'sib qo'yilishi. Monopolistlar iqtisodiyotdagi erkin va halol raqobatga to'sqinlik qilib, nisbatan kuchsiz bo'lgan korxonalarni o'zlariga bo'ysundirishlari, jamiyatga o'z ishchilarining mehnatiga pasaytirilgan miqdorda haq to'lash, past sifatli tovarlarni ishlab chiqarish, o'ta darajada oshirib yuborilgan sotish narxlari (yoki pasaytirilgan xarid narxlari), o'z mahsulotini iste'mol qilishga bilvosita usul orqali majburlash kabi o'zlarining kamsituvchi shartlarini ko'ndalang qo'yishlari mumkin. Bundan ko'rinadiki, monopolistik faoliyat iqtisodiy rivojlanishiga ancha jiddiy ta'sir ko'rsatishi, taraqqiyot yo'liga g'ov bo'lishi ham mumkin. Shunga ko'ra, bugungi kunda deyarli barcha mamlakatlar iqtisodiyotida monopoliyalarni davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari qo'llanilib, bu **monopoliyaga qarshi siyosat** deb ataladi. Davlatning monopoliyaga qarshi siyosati asosini **monopoliyaga qarshi qonunchilik** tashkil etib, u turli mamlakatlarda turli darajada rivojlangan bo'ladi.

Odatda AQShdagi monopoliyaga qarshi qonunchilik nisbatan ilgariroq va mukammalroq ishlab chiqilgan, deb hisoblanadi. U quyidagi uchta qonunchilik hujjatlariga asoslanadi:

1. Sherman qonuni (1890 yilda qabul qilingan). Bu qonun savdoni yashirin monopollashtirish, u yoki bu tarmoqdagi yakka nazoratni qo'lg'a olish, narxlar bo'yicha kelishuvlarni taqiqlaydi.

2. Kleyton qonuni (1914 yilda qabul qilingan). Bu qonun mahsulot sotish sohasidagi cheklovchi faoliyatlarni, narx bo'yicha kamsitish, ma'lum ko'rinishdagi birlashib ketishlar, o'zaro bog'lanib ketuvchi direktoratlar va boshqalarni taqiqlaydi.

3. Robinson-Petmen qonuni (1936 yilda qabul qilingan). Bu qonun savdo sohasidagi cheklovchi faoliyatlar, «narxlar qaychisi», narx bo'yicha kamsitishlar va boshqalarni taqiqlaydi.

1950 yilda Kleyton qonuniga **Seller-Kefover tuzatishi** kiritildi. Unda noqonuniy birlashib ketishlar tushunchasiga aniqlik kiritilib, aktivlarni sotib olish orqali birlashib ketish taqiqlandi. Agar Kleyton qonuni yirik firmalarning gorizontaal ravishdagi birlashib ketishlariga to'siq qo'ygan bo'lsa, Seller-Kefover tuzatishi vertikal ravishdagi birlashib ketishlarga cheklov kiritdi.

Monopol hokimiyat. Firma monopol hokimiyatga ega bo'ladi, qachonki u o'zining sotadigan tovari narxiga ta'sir qila olsa, ya'ni o'zgartira olsa.

Monopolist mahsulotiga talab. Raqobatlashgan bozorda firma maksimal foyda oladi, agar u chekli daromad chekli xarajatga teng holatni ta'minlaydigan hajmda mahsulot ishlab chiqarsa,

$$MR = MC.$$

Bunday mahsulot hajmi optimal bo'ladi.

Monopol hokimiyat ko'rsatkichi. Raqobatlashgan bozorda narx chekli xarajatga teng bo'lishi, maksimal foyda olishning zaruriy sharti edi. Monopol bozorda narx chekli xarajatdan yuqori belgilanadi ($P > MC$). Ana shu farq ($MC - P$), ya'ni foydani maksimallashtiradigan narx bilan chekli xarajat o'rtasidagi farq monopol hokimiyatni o'lchash usuli bo'lishi mumkin. Monopol hokimiyatni xuddi ushbu usulda aniqlashni 1934 yilda iqtisodchi olim Abba Lerner tomonidan taklif qilganligi uchun, bu ko'rsatkich Lernerning monopol ko'rsatkichi degan nomni olgan

$$L = \frac{P_m - MC}{P_m} = -\frac{1}{E_p^D},$$

bu yerda:

L - monopol hokimiyatning Lerner indeksi;

P_m - monopol narx;

MC - chekli xarajat;

E_p^D - talabning narxga ko'ra elastikligi.

Masalan, benzining talabning narx bo'yicha elastikligi -5 bo'lsa,

$$-\frac{1}{E_p^D} = -\frac{1}{-5} = 0,2.$$

Benzin sotuvchi firmaning monopol hokimiyati 0,2 ga teng.

Monopol hokimiyatni xarakterlash uchun bozorni markazlashuv darajasi ko'rsatkichidan ham foydalaniladi. Bu ko'rsatkich birinchi bo'lib Xerfindal-Xirshman tomonidan tavsiya etilgani uchun, u Xerfindal-Xirshman indeksi deb yuritiladi.

Firmalar bozordagi ulushiga ko'ra tartiblashtiriladi.

$$I = S_1^2 + S_2^2 + S_3^2 + \dots + S_n^2,$$

bu yerda: I - Xerfindal-Xirshman indeksi;

S_1^2 - bozorda eng katta ulushga ega bo'lgan firma;

S_2^2 - undan keyingi kattalikdagi ulushga ega firma va hokazo;

S_n^2 - eng kichik ulushga ega bo'lgan firma.

Agar tarmoqda yagona firma bo'lib, uning mahsuloti tarmoq mahsulotini tashkil qilsa, $S_1^2 = 100\%$ bo'ladi va bunday hol sof monopoliya bo'ladi, ya'ni Xerfindal-Xirshman indeksi $I = 10000$ ga tengdir.

3. O'zbekistonda raqobatchilik muhitining vujudga kelishi va monopoliyaga qarshi qonunchilik

Raqobatning amal qilishi ma'lum shart-sharoitlar mavjud bo'lishini taqozo qiladi. Bu shart-sharoitlar faqat bozor munosabatlari qaror topgan muhitda bo'lishi mumkin. Shunday ekan, bozor iqtisodiyotini yuzaga keltirish ayni vaqtda raqobatchilik muhitining shakllanishini bildiradi. Bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlarda raqobatchilik muhiti uzoq davr davomida, o'z-o'zidan, evolyusion yo'l bilan vujudga kelgan. Bu asta-sekin erkin raqobat muhitini keltirib chiqargan.

Iqtisodiyotda monopollashuv prinsiplari kuchayib borishi bilan raqobat cheklanadi, shu sababli raqobatchilik muhitini vujudga keltirishda davlat ham qatnashadi. Bu esa, yuqorida ta'kidlanganidek, davlatning monopoliyalarga qarshi siyosatida o'z aksini topadi. Har bir mamlakatdagi aniq vaziyat, ya'ni iqtisodiyotning monopollashuv darajasi uning miqyosi va tavsifiga qarab, bu siyosat erkin raqobat muhitini yangidan yaratish, uni saqlab qolish, zarur bo'lganda qaytadan tiklash, raqobat usullarini qaror toptirish kabilarga qaratiladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda ham uyushmalar, konsernlar, korporatsiyalar, kompaniyalar shaklidagi monopoliyalar saqlanib qolgan bo'lib, ular ko'pincha tarmoq vazirliklari mavqe va vazifalariga ega bo'ladi. Mahsulot va xomashyolarning alohida turlarini limit va fond ko'rinishida taqsimlashning eskicha tizimi, shuningdek, biznesni amalga oshirish uchun ruxsat, litsenziya, sertifikatlar berish, kelishish kabi mavjud ma'muriy to'siqlar monopolistik tendensiyalarga ko'proq imkon yaratadi. O'zbekistonda samarali raqobat muhitini yaratish uchun quyidagilar bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi taqozo etiladi:

a) iqtisodiyotda davlat monopolizmining har qanday namoyon bo'lishini maksimal darajada bartaraf etish. Buning uchun tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish tizimini takomillashtirish uchun nisbatan qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan chuqur institutsional islohotlar zarur;

b) bozor sharoitida vujudga kelayotgan monopoliyalarning bozordagi o'z ustunlik mavqelarini suiiste'mol qilish imkoniyatlarining oldini olish. Davlat muassasalari raqobatning rivojlanishini ta'minlashlari lozim. Busiz samarali innovatsiyalar, past xarajatlar va narxlar, mahsulotning yuqori sifatiga erishish, boshqacha aytganda, butun iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish mumkin emas.

O'zbekistonda davlatning raqobatchilik muhitini shakllantirishga qaratilgan siyosatida xususiylashtirish, davlat mulki hisobidan mulkchilikning boshqa shakllarini vujudga keltirish asosiy o'rin tutadi. Xususiylashtirish natijasida, birinchidan, mulk o'z egalari qo'liga topshirilsa, ikkinchidan, ko'p ukldli iqtisodiyot va raqobatchilik muhitini vujudga keltiradi. Shunday qilib, O'zbekistonda raqobatchilik muhitini vujudga keltirishning asosiy yo'li, bu raqobatni inkor qiluvchi davlat monopoliyasidan nodavlat, turli xo'jalik shakllarining mavjudligiga asoslangan va iloji boricha erkin raqobatni taqozo etuvchi bozor tizimiga o'tishdir. Bu yerda raqobatchilik munosabatlarini shakllantirish, avvalo, mustaqil erkin tovar ishlab chiqaruvchilarning paydo bo'lishini taqozo qiladi, chunki raqobatning asosiy sharti alohidalashgan, mulkiy mas'uliyat asosida o'z manfaatiga ega bo'lgan va tadbirkorlik tahlikasini zimmasiga oluvchi erkin xo'jalik sub'ektlarining mavjudligi, ularning bozor orqali aloqa qilishidir. Shu maqsadda O'zbekistonda «Monopol faoliyatni cheklash to'g'risida»gi qonun (1992 yil, avgust) kuchga kiritildi hamda uning asosida raqobatchilikni rivojlantirishga qaratilgan bir turkum me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi. Mazkur qonunga ko'ra, bozorda ataylab taqchillik hosil qilish, narxlarni monopollashtirish, raqobatchilarning bozorga kirib borishiga to'sqinlik qilish, raqobatning g'irrom usullarini qo'llash man etiladi. Qonunni buzuvchilar raqibiga yetkazgan zararni qoplashlari, jarima to'lashlari, g'irromlik bilan olgan foydadan mahrum etilishlari shart.

O'zbekiston Respublikasida raqobatni rivojlantirishga yo'naltirilgan asosiy islohotlar:

1-bosqich (1991-1999 yy.) Raqobat muhitini shakllantirish uchun bozor mexanizmlarini yaratish:

- **1992 yil 2 iyulda** – “Monopolistik faoliyatni cheklash to'g'risida”gi qonun qabul qilindi va O'zbekistonda raqobat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish boshlandi;
- **1992 yil**– O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tarkibida Monopoliyaga qarshi va narx siyosati Bosh boshqarmasi tashkil etildi;
- **1996 yil 27 dekabrda** - «Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida»gi qonun qonun qabul qilindi;
- **1996 yil**– O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish qo'mitasi tashkil etildi.
- **1997 yil 24 aprel** – “**TABIY MONOPOLIYALAR TO'G'RSIDA**”gi qonun qabul qilindi.

2-bosqich (2000-2010 yy). Monopolist korxonalarini monopoliyadan chiqarish, bo'lib yuborish va qayta tashkil etish:

- **2000 yil**– O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga muvofiq monopoliyaga qarshi organ Moliya vazirli tarkibidan chiqarildi, unga davlat qo'mitasi maqomi berilib, respublikada monopoliyaga qarshi siyosatni amalga oshirish vakolati berildi.
- **2005 yil**– raqobat, kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'llab quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga muvofiq monopoliyaga qarshi organ qayta tashkil etildi va unga yangi vakolatlar berildi.
- **Qo'mitaga yangi nom berildi** – O'zbekiston Respublikasi monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi.

3-bosqich (2010 yildan boshlab) Moliya bozorlarida monopoliyaga qarshi kurashni tartibga solishni joriy etish.

- **2010 yil** — monopoliyaga qarshi kurashni tartibga solishni yanada kuchaytirish va sog'lom raqobat muhitini yaratish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga muvofiq monopoliyaga qarshi organ qayta tashkil etildi va uning tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash funksiyasi bekor qilindi.
- **2012 yil** – ikkita davlat qo'mitasini qo'shib ketishi orqali yana qisman o'zgarish bo'ldi. Shu yilda "Raqobat to'g'risida"gi qonun qabul qilindi.
- **2013 yil 20 avgustda** - Vazirlar Mahkamasining 230-son qarori bilan «Xizmatlarning moliya bozorida monopol yuqori va monopol past narxlarni aniqlash tartibi to'g'risida nizom» tasdiqlandi.
- **2019 yil 14 yanvarda** - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining №PF-5630-sonli "Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi.
- **2019 yil 24 yanvarda** - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining № PQ-4126-sonli "O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi tuzildi.

O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasining vazifa, funksiya va vakolatlari:

- monopoliyaga qarshi kurashni tartibga solish,
- raqobat muhitini rivojlantirish,
- tabiiy monopoliya sub'ektlari faoliyati ustidan nazorat olib borish,
- iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish,
- reklama bozorini tartibga solish;
- tovar-homashyo birjalarini litsenziyalash kabi berildi.

Quyidagi hatti-harakatlar 2012 yilda qabul qilingan «Raqobat to'g'risida»gi O'RQ-319-son qonunga ko'ra raqobatga qarshi harakatlar hisoblanadi:

- xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan bozordagi ustunlik holatining suiste'mol qilinishi (10-modda);
- xo'jalik sub'ektlarining raqobatni cheklashga qaratilgan bitimlari (o'zaro kelishilgan xatti-harakatlari) (11-modda);
- davlat boshqaruvi organlari va mahalliy hokimiyat organlarining raqobatni cheklashga yo'naltirilgan xatti-harakatlari (12-modda);
- insofsiz raqobat (13-modda).

Respublikada raqobatchilik muhitini vujudga keltirishda amalga oshirilayotgan barcha ishlar bozor iqtisodiyotini tarkib toptirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan monopoliyaga qarshi siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri – bu monopolist korxonalarining tovar bozorida egallab turgan ustunlik mavqeini suiste'mol qilishning oldini olish va unga yo'l qo'ymaslik bo'yicha nazorat olib borishdan iboratdir. Aynan shu maqsadda monopolist korxonalar Davlat reestri yuritilib, unga muayyan tarmoqda ustun mavqega ega bo'lgan korxonalar kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasining «Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 20 avgustdagi 230-son qarori»ga asosan O'zbekistonda monopol mavqeni hisoblash amalga oshiriladi. Firmaning bozordagi ulushi u ishlab chiqargan tovarni realizatsiya qilish hajmining tovar bozori hajmiga nisbati sifatida aniqlanadi:

$$BU = V_o \times 100 / V_p,$$

bu yerda:

BU — firmaning bozordagi ulushi;

V_o — tovar bozorida firmaning tovarni realizatsiya qilish hajmi,

V_p — tovar bozorining miqdori:

$$V_p = V_{o1} + V_{o2} + \dots + V_{on} + V_i,$$

bu yerda:

Vo1 — Von — tovar bozorida barcha firmalar tomonidan tovarlarni realizatsiya qilish hajmi;

Vi — tovar bozori hududida import tovarini realizatsiya qilish hajmi.

O‘zbekistonda monopol mavqeni aniqlash ko‘rsatkichlari va shartlari:

a) 50 foiz va undan ortiqni tashkil etsa;

b) 35 foizdan 50 foizgacha hajmda bo‘lib, bunda quyidagi shartlar:

- firmalarning tovar bozorida ulushi kamida bir yil mobaynida 35 — 50 foiz doirasida bo‘lgan ulushi bir yil va undan ortiq muddat mobaynida barqaror bo‘lib turishi;
- tovar bozorida 20 foizdan ortiq ulushga teng raqobatchilarning yo‘qligi;
- ushbu bozorga yangi raqobatchilarning kirishiga imkoniyat bo‘lishi.

O‘zbekistonda 2023 yilning 8 avgust holatiga Tabiiy monopoliya sub’ektlarining Davlat reestrda 11 turdagi tovarlar (ishlar, xizmatlar) guruhi bo‘yicha **134 ta** xo‘jalik yurituvchi sub’ekt ro‘yxatga olingan. Jumladan:

- Respublika darajasida 16 ta;
- Viloyatlar darajasida 118 ta⁷.

O‘zbekistonda 15.05.2023 yil holatiga Tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning davlat reestrda 11 turdagi tovarlar (ishlar, xizmatlar) guruhi bo‘yicha **85ta** xo‘jalik yurituvchi sub’ekt ro‘yxatga olingan⁸.

Reestrda olingan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘z mahsulotlarining narx (tarif)lari yoki rentabellik darajalarini Moliya vazirligida yoki joylardagi moliya organlarida deklaratsiyadan o‘tkazishlari shart.

Tabiiy monopoliya sub’ektlarining Davlat reestrda korxonalar RO‘YXATI

T/p	Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt nomi	Tabiiy monopoliya sohasida ko‘rsatayotgan xizmat turi	
1	2	3	
Reestrning respublika bo‘limi			
1	1	«O‘ztransgaz» AJ	Tabiiy gazni quvur orqali transportirovka qilish xizmatlari
2	2	«Hududgazta‘minot» AJ va uning tizimidagi 14 ta hududiy gaz ta‘minoti korxonalar	Tabiiy gazni quvur orqali transportirovka qilish xizmatlari
3	3	«Issiqlik elektr stansiyalari» AJ va uning tizimidagi 7 ta issiqlik elektr stansiyalari	Elektr va issiqlik energiyasi ishlab chiqarish
4	4	«O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari» AJ	Elektr energiyasini transportirovka qilish xizmati
5	5	«Hududiy elektr tarmoqlari» AJ va uning tizimidagi 14 ta hududiy elektr tarmoqlari korxonalar	Elektr energiyasini transportirovka qilish xizmati
6	6	«Uzbekistan Airports» AJ va jamiyat tarkibidagi 11 ta xalqaro aeroportlar	Aeroport xizmatlari
7	7	«Urgenchtransgaz» UK	Tabiiy gazni quvur orqali transportirovka qilish xizmatlari
			Elektr energiyasini transportirovka qilish xizmati
			Texnologik suvni transportirovka qilish
8	8	«O‘zbekgidroenergo» AJ va uning tizimidagi 13 ta gidroelektrostansiyalar	Elektr energiyasini ishlab chiqarish
9	9	«Maxsusenergogaz» AJ	Issiqlik energiyasini ishlab chiqarish hamda transportirovka qilish xizmatlari

⁷ <https://raqobat.gov.uz/uzb/xizmatlar/ochiq-malumotlar/tabiiy-monopoliya-subektlarining-davlat-reestri/>

⁸ <https://raqobat.gov.uz/uzb/xizmatlar/ochiq-malumotlar/tovar-yoki-moliya-bozorida-ustun-mavqeni-jegallab-turgan-ho-jalik-jurituvchi-subektlarning-davlat-reestri/>

10	10	«O‘zbekiston temir yo‘llari» AJ	Temir yo‘llar infratuzilmasidan foydalanish xizmatlari
11	11	«O‘zbekiston pochta» AJ	Umumiy erkin foydalaniladigan pochta aloqasi xizmatlari
12	12	«Damxo‘ja suv ta‘minoti» MChJ	Suv ta‘minoti xizmatlari
13	13	«O‘zaeronavigatsiya» DUK	Aeronavigatsiya xizmatlari
14	14	«O‘zbekneftgaz» AJ	Neft, neft mahsulotlari va gazni (gaz kondensati) quvur orqali transportirovka qilish xizmatlari
15	15	«Angren IES» AJ va «Yangi Angren IES» AJ (shaxslar guruhi sifatida)	Elektr va issiqlik energiyasi ishlab chiqarish
16	16	“UzGasTrade” AJ	Gazni quvur orqali transportirovka qilish xizmati

Respublikada monopoliyalar ro‘yxatiga kirgan korxonalar (tarmoq) larning bozordagi mavqeini tartibga solishda davlat bir qator usullardan foydalanadi. Bu usullardan ikkitasini ajratib ko‘rsatish lozim:

1. Monopol mavqedagi korxonalar mahsulotlariga narxlarning eng yuqori darajasini yoki rentabellikning chegarasini belgilab qo‘yish.

2. O‘z monopol mavqeini suiiste‘mol qilgan monopolistik birlashmalarni bo‘lib tashlash yoki maydalashtirish. Bu usul Vazirlar Mahkamasining (1994 yil 18 iyuldagi 366-sonli) qarori bilan tasdiqlangan «Ob‘ektlarning xo‘jalik yurituvchi jamiyatlar va shirkatlar tarkibidan chiqish tartibi to‘g‘risidagi Nizom» asosida amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasining «Iste‘molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida» (1996 yil, aprel) qonuni asosida g‘irrom raqobatga, shu jumladan Respublika bozorlariga belgilangan talablarga javob bermaydigan tovarlarni chiqarishga yo‘l qo‘ymaydigan mexanizmni yaratishga ham alohida e‘tibor beriladi. Tabiiy monopoliyalarni davlat yo‘li bilan tartibga solish ular mahsulot (xizmat)lariga narxlar va tariflar darajasini, shuningdek, taklif etiladigan tovarlar va xizmatlar turiga doir asosiy ko‘rsatkichlarni belgilashni o‘z ichiga oladi.

4-MAVZU. MILLIY IQTISODIYOTNING BARQARORLIGINI TA‘MINLASHDA FISKAL SIYOSATNING O‘RNI.

Reja:

1. Fiskal siyosatning maqsadi va transformatsiyalashuvi muammolari.
2. Fiskal siyosat yo‘nalishlari.
3. Soliq yuki va Laffer egri chizig‘i

✎ Tayanch iboralar:

Fiskal siyosat, fiskal siyosat yo‘nalishlari, Soliq yuki va Laffer egri chizig‘i, Nodiskret fiskal siyosat, diskret fiskal siyosat

4.1. Fiskal siyosatning maqsadi va transformatsiyalashuvi muammolari.

Davlatning muhim vazifalaridan biri iqtisodiyotni barqarorlashtirish hisoblanadi. Bunday barqarorlashtirishga budjet-soliq siyosat va pul-kredit siyosat vositalari orqali erishiladi.

G‘arb ilmiy adabiyotida **budjet-soliq siyosati** jumladan **fiskal siyosat** deb nomlanadi.

Fiskal siyosati deganda noinflyatsion YaIM ishlab chiqarish sharoitida iqtisodiyotda to‘liq bandlilikni, to‘lov balansining muvozanatini va iqtisodiy o‘sishni ta‘minlashga qaratilgan davlat xarajatlari va soliqlarini o‘zgartirishni o‘z ichiga olgan chora- tadbirlar tushuniladi.


Fiskal siyosatning ikki turi farqlanadi:

- **rag‘batlantuvchi fiskal siyosat** (fiskal ekspansiya) - iqtisodiy turg‘unlik yoki pasayish

davrida qo'llaniladi;

- **cheklovchi fiskal siyosat** (fiskal restriksiya) - iqtisodiyotda to'liq bandlik va ortiqcha talab natijasida inflyatsiya kelib chiqishi mumkin bo'lgan vaziyatlarda qo'llaniladi

Rag'batlantuvchi fiskal siyosatning makroiqtisodiyotga ta'siri



Uzoq muddatda davlat xarajatlarining yuqori bo'lishi, soliqlarni kamaytirish ishlab chiqarish omillarining o'sishiga va iqtisodiy salohiyatning ko'tarilishiga olib kelishi mumkin. Ushbu holatga Markaziy bank tomonidan olib boriladigan pul-kredit siyosatidan samarali foydalanish va davlat xarajatlari tarkibini maqbul holatga olib kelish orqaligina erishish mumkin.

Cheklovchi fiskal siyosatning makroiqtisodiyotga ta'siri



Qisqa muddatli davrlarda ushbu tadbirlar talab inflyatsiyasini kamaytiradi. Uzoq muddatli davrlarda esa yuqori soliqlar iqtisodiyotda stagnatsiyaga olib kelishi mumkin. Bu esa mamlakatning iqtisodiy salohiyatini izdan chiqaradi. Bunga davlat xarajatlaridan samarasiz foydalanish qo'shimcha turtki bo'lishi mumkin.

4.2. Fiskal siyosat yo'nalishlari.

Hukumatning bandlik darajasi, ishlab chiqarish hajmi, inflyatsiya sur'atlari va to'lov balansi holatini o'zgartirishga yo'naltirilgan maxsus qarorlarni qabul qilishi natijasida davlat xarajatlari, soliqlar va davlat budjeti qoldig'ini maqsadli o'zgartirilishi **diskret fiskal siyosat** deyiladi. Diskret fiskal siyosat yuritilganda iqtisodiy pasayish davrida jami talabni rag'batlantirish uchun davlat xarajatlarini oshirilishi va soliqlarni kamaytirilishi natijasida davlat budjeti kamomadi yuzaga keltiriladi. O'z navbatida davriy ko'tarilish paytida budjet profitsiti yuzaga keltiriladi.

Diskret fiskal siyosat iqtisodiy tebranishlarni yumshatishda muhim rol o'ynasada, uning ayrim kamchiliklari mavjud. Bu, avvalam bor, vaqt oraliqlari bilan bog'liq. Ya'ni iqtisodiyotda pasayish yoki inflyatsion zo'riqishning paydo bo'lishi, bu holatlarni aniqlash yuzaga kelgan muammolarni hal etish uchun davlat xarajatlari va soliq tushumlarini o'zgartirish borasida qaror qabul qilish, bu qaror bajarilishini ta'minlash jarayonlarining har biri o'rtasida ma'lum vaqt o'tadi.

Bu vaqt davomida iqtisodiy vaziyat o'zgaradi va ko'rilgan chora-tadbirlar ko'tilgan natijani

bermasligi mumkin. Shu tufayli davriy tebranishlarni avtomatik tarzda yumshatib turish mexanizmini yaratish zarurati yuzaga keladi.

Nodiskret fiskal siyosat – davlat xarajatlari, soliqlar va davlat budjeti qoldig‘ini avtomatik o‘zgartirishni ko‘zda tutadi. Nodiskret fiskal siyosat o‘rnatilgan barqarorlashtirgichlarga asoslanadi. Rivojlangan davlatlarda o‘rnatilgan barqarorlashtirgichlari rolini progressiv soliq tizimi, davlat transfertlari tizimi va foydada ishtirok etish tizimi o‘ynaydi. Nodiskret fiskal siyosat davriy tebranishlarni yumshatish uchun hukumatning bevosita aralashuvini talab etmaydi. Davriy pasayish sharoitida daromadlar pasayishi tufayli soliq stavkalari pasayadi. Bu esa jami talabning oshishiga, ishlab chiqarishni kengaytirishga rag‘batni yuzaga kelishiga olib keladi. Shuningdek pasayish davrida davlat transfertlari, jumladan ishsizlik nafaqasi to‘lovlari miqdori oshadi. Bu holat ham jami talabni oshirib, jami taklif hajmini oshishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Iqtisodiy yuksalish davrida ortiqcha talab iqtisodiyotga inflyatsion ta‘sir ko‘rsatayotgan sharoitda daromadlar darajasi oshishi bilan soliqlar stavkalari pasayadi va bu jami talabga cheklovchi ta‘sir ko‘rsatadi. Ayni paytda davlat xarajatlari (ishsizlarga nafaqalar, davlat transfertlarining bir qancha turlar) ham pasayadi. Ammo nodiskret fiskal siyosat vositalari iqtisodiy tebranishlarni to‘liq yumshatish imkonini bermaydi va u diskret fiskal siyosat yuritishni inkor etmaydi.

Iqtisodiyotning o‘rnatilgan barqarorligi darajasi davriy budjet taqchilligi va profitsiti miqdorlariga bog‘liq. Davriy taqchillik (ortiqchalik) iqtisodiy faollik pasayishi (oshishi) sharoitida soliq tushumlarining avtomatik kamayishi (oshishi) va davlat xarajatlarining avtomatik oshishi (kamayishi) natijasida yuzaga keladigan davlat budjeti taqchilligi (profitsiti)dir.

Davriy pasayish bosqichida soliqlarning avtomatik pasayishi, davlat transfertlarining oshishi natijasida budjet taqchilligi kelib chiqadi.

Davriy yuksalish bosqichida soliqlar avtomatik ko‘payishi va davlat xarajatlarining kamayishi natijasida budjet profitsiti paydo bo‘ladi.

To‘liq bandlikni ta‘minlagan diskret fiskal siyosat yuritilishi natijasida davlat budjetining tarkibiy taqchilligi (profitsiti), ya‘ni to‘liq bandlik sharoitida budjet xarajatlari (daromadlari) va daromadlari (xarajatlari) o‘rtasidagi farq yuzaga keladi.

Davriy taqchillik ko‘pincha davlat budjetining haqiqiy taqchilligi va tarkibiy taqchillik farqi sifatida baholanadi.

Davlat byudjeti kamomadini moliyalashtirish usullari:

1. Pul-kredit emissiyasi;
2. Davlat zayomlarini chiqarish;
3. Davlat budjetiga soliq tushumlarini ko‘paytirish.

Iqtisodiyotda soliq yukining pasaytirilishi korxonalarining moliyaviy resurslarining ko‘payishiga olib keldi. Bu o‘z navbatida investitsiyalarnig ko‘payishi, korxonalarining aylanma mablag‘larini to‘ldirish, ishchi va xizmatchilarning ish haqi va daromadlarini oshirish uchun qo‘shimcha manba bo‘lib xizmat qiladi.

4.3. Soliq yuki va Laffer egri chizig‘i


Soliq siyosatini amalga oshirishda soliq stavkasining optimal darajasini qo‘llashga harakat qilinadi.

Soliq stavkasining optimal darajasi soliq tushumlarining maksimal darajasini ta‘minlaydigan soliq me‘yorida.

Soliq stavkasi va soliq tushumlari o‘rtasidagi bog‘liqliq amerikalik iqtisodchi Artur Laffer tomonidan tadqiq etilgan.

A.Laffer konsepsiyasiga binoan davlat budjet daromadlarini ko‘paytirish maqsadida hukumat tomonidan soliq stavkalarini ko‘paytirilishi yashirin iqtisodiyotni rivojlanishiga va soliq tushumlarini kamayishiga olib kelishi mumkin.

Soliq yuki va Laffer egri chizig'i



Bu yerda: t – soliq stavkasi
 T - soliq tushumi
 t_0 – optimal soliq stavka

Nazorat savollari:

1. Davlat budjeti tanqisligi va uni kamaytirish yo'nalishlari.
2. Soliq siyosati islohotlarining mohiyati va ustuvor yo'nalishlari.
3. Jahondagi global "qo'shilgan qiymat zanjir"ining uzilishi va pandemiyadan keyingi jahon iqtisodiyotining rivojlanish muammolari.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Maxsus adabiyotlar

1. Tay Vaughan., Multimedia: Making it Work. USA, 2016, English.
2. Martin Weale, Andrew Blake, Nicos Christodoulakis, James E Made, David Vines., Macroeconomic Policy. UK, 2015, English.
3. Keith S. Taber., Modelling Learners and Learning in Science Education: Developing Representations of Concepts, Conceptual Structure and Conceptual Change to Inform Teaching and Research. Springer., UK, 2013, English.
4. Andrew P. Sage, William B. Rouse., Economic Systems Analysis and Assessment: Intensive Systems, Organizations, and Enterprises. USA, 2011, English.
5. Dimitrios Asteriou, Stephen G. Hall., Applied econometrics (second edition). USA, 2011, English.
6. Adam Szirmai, Wim Naude, Micheline Goedhuys., Entrepreneurship, Innovation, and Economic Development. UK, 2011, English.

Internet resurslari

1. <http://www.mineconomi.uz>.
2. www.uzreport.com
3. www.reuter.com
4. www.ebrd.com
5. www.forexite.com
6. <http://www.wordbank.org>.
7. <http://www.ebrd.org>.
8. <http://www.imf.org>

9. www.undp.org

10. www.ecb.int

5-MAVZU. Pul-kredit siyosati va inflyatsiyani jilovlash muammolari

Reja:

1. Pul-kredit siyosatining strategik maqsadi va amalga oshirish dastaklari.
2. Inflyatsiya darajasi va uni mo'tadillashtirish muammolari.
3. O'zbekiston Respublikasida pul-kredit siyosatining qisqa va uzoq davrdagi xususiyatlari.

🔗 Tayanch iboralar:

Pul-kredit siyosati, inflyatsiya darajasi, pul-kredit siyosatining dastaklari

5.1. Pul-kredit siyosatining strategik maqsadi va amalga oshirish dastaklari.

Pul-kredit siyosatining konseptual asoslari:

- Monetarizm konsepsiyasi
- Keynschilik konsepsiyasi

Monetarizmning nazariy qoidalari:

* pul aylanish tezligining pul miqdoriga ko'paytmasi nominal daromadga teng bo'lishi kerak

*nominal YaIM mutlaq ravishda pul massasining tebranishlari orqali aniqlanadi. Pul massasin oshsa, shunga mos holda $R \times Y$ -nominal YaIMning qiymati ham oshishi kerak

*ish haqi va baholar mutlaqo o'zgaruvchan, shu sababli yalpi ishlab chiqarish Y to'liq bandlik darajasi va iqtisodiyotning sog'lom rivojlanishi sharoitida o'zgarishdan qoladi

*muomaladagi pul massasining qat'iy belgilangan o'sish sur'atlarini joriy etish va uni Markaziy bank tomonidan oraliq nishon sifatida nazorat qilish pul-kredit siyosatining samaradorligini oshiradi

*pul massasining tebranishi kon'yunkturaviy o'zgarishlarga bog'liq emas

*Markaziy bank tomonidan chiqarilgan pullar (yuksak quvvatli pullar)ning o'zgarishi Markaziy bank siyosatining natijasidir, "yuksak quvvat"li pullarning o'zgarishi esa, Markaziy bank tomonidan ochiq bozor siyosati orqali tartibga solib turiladi

*pul massasi yuqori likvidli pullarning o'zgarishiga mos ravishda o'zgaradi, yuqori likvidli pullarning o'zgarishini esa Markaziy bank o'zining ochiq bozor siyosati orqali nazorat qiladi.

Monetar pul-kredit siyosatini amalga oshirish mexanizmi:

- Pul-kredit siyosatining o'zgarishi
- Pul taklifining o'zgarishi
- Tijorat banklari zahiralarning o'zgarishi
- Yalpi talabning o'zgarishi
- Nominal YaIMning o'zgarishi

Keynschilik konsepsiyasining nazariy qoidalari:

umumiy talab ishlab chiqarishni belgilaydi, ishlab chiqarishning darajasi esa to'liq bandlikka erishish uchun yetarli bo'lmasligi mumkindir. Bunda pullar strategik rol o'ynaydi va umumiy talabni aniqlashga imkon beradi: pul miqdorining yetishmasligi yoki ortiqchaligi muvofiq tarzda ishsizlikni yoki inflyatsiyani yuzaga keltirishi mumkin.

* foiz stavkalarining dinamikasi psixologik hodisadir, foiz stavkalariga muomaladagi pul miqdori kuchli tarzda ta'sir ko'rsatadi va uning o'zgarishi foiz stavkalarining «mo'tadil» darajasi to'g'risidagi turli xildagi tasavvurlarga bog'liq.

* pullarga bo'lgan talab va foiz stavkasi o'rtasidagi o'zaro munosabat noabarqaror ko'rsatkich hisoblanadi, ushbu noabarqarorlik tufayli moliya organlari foiz stavkalarining maqbul darajasiga erishish maqsadida pul massasini zarur darajada o'zgartirish uchun zarur bo'lgan oraliq nishonlarni tanlab ololmaydilar. Agar bunga foiz stavkasi va umumiy talab o'rtasidagi o'zaro munosabatlardagi noaniqlik qo'shilsa, unda budjet instrumentlariga asosiy e'tiborni qaratishning asosliliigi namoyon bo'ladi

* ma'lum sharoitlarda foiz stavkasi yetarli darajada elastik bo'lmay qolishi mumkin. Moliya organlari foiz stavkalarini pasaytirishga harakat qilganlarida ma'lum qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin, ushbu qiyinchiliklar muomaladagi pul massasining sezilarli darajada o'sishi foiz stavkalariga nisbatan zaif tarzda ta'sir qilganda yuzaga keladi

* pulning qiymati ularga nima sotib olish mumkinligi bilan aniqlanadi, odamlar ma'lum miqdorda real pul qoldiqlariga ega bo'lishga harakat qiladilar va bu miqdor real daromad (Y) va foiz stavkasiga (i) bog'liq.

Keyschilik pul-kredit siyosati amalga oshirish mexanizmi:

- Pul-kredit siyosatining o'zgarishi
- Tijorat banklari zahiralarning o'zgarishi
- Pul taklifining o'zgarishi
- Foiz stavkasining o'zgarishi
- Investitsiyalarning o'zgarishi
- Bandlikning o'zgarishi
- Nominal YaIMning o'zgarishi

Pul-kredit siyosatining strategik maqsadi - milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash va mamlakatda baholar barqarorligiga erishishdir.

Pul-kredit siyosatining taktik maqsadlari - strategik maqsadga erishish uchun qo'llaniladigan joriy taktik usullarning majmuidir.

Pul-kredit siyosatining an'anaviy instrumentlari:

1. Markaziy bankning qayta moliyalash siyosati.
2. Markaziy bankning majburiy zahira siyosati.
3. Ochiq bozor siyosati.
4. Valyuta siyosati.
5. Markaziy bankning depozit siyosati.

Pul-kredit siyosati iqtisodiyotni muvozanatlashtiruvchi dastaklardan biri hisoblanadi.

Iqtisodiy jarayonlar doimo bir xil ko'rinishdagi tendensiyalar bilan rivojlanmaydi. Talab va taklif omillarining o'zgarishi, birinchi navbatda, ishlab chiqarish tebranishlarini ifoda etadi.

Amaldagi (joriy) ishlab chiqarish hajmi o'zining potensialidan chetlashgan holatlarda pul-kredit siyosati dastaklari iqtisodiyotni muvozanatlashtiruvchi rolni bajaradi.

Iqtisodiyot o'z potensialidan yuqori darajada foydalangan sharoitda musbat ishlab chiqarish tafovuti yuzaga keladi va inflyatsiyaga oshiruvchi bosim beradi.

Bunday holatda Markaziy bank asosiy stavkani oshiradi va pul-kredit sharoitlarini qat'iylashtirish orqali yalpi ichki talab hajmiga ta'sir ko'rsatib ishlab chiqarish hajmining potensial darajaga qaytishini ta'minlaydi.

Ayni paytda, ishlab chiqarish hajmi o'z potensialidan past darajada foydalanganda asosiy stavkani pasaytirish orqali iqtisodiyotni rag'batlantirish va ishlab chiqarish hajmini potensial darajasigacha oshirish lozim bo'ladi.

Markaziy bank mavjud pul-kredit siyosati instrumentlari orqali uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlay olmaydi, faqatgina iqtisodiy o'sishning qisqa muddatli tebranishlarini muvozanatlashtirish imkoniyatiga ega.

Uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash va potensial ishlab chiqarish hajmlarini oshirish maqsadlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan davomiy tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarini texnik-texnologik qayta yangilash, mehnat unumdorligini oshirish va bozor tamoyillarini keng joriy etishni taqozo etadi.


Pul-kredit siyosatining pirovard maqsadi - mamlakatda barqaror past darajadagi inflyatsiyani ta'minlash bo'lsa, umumiy makroiqtisodiy vazifa esa aholi turmush darajasining yaxshilanishi va farovonligining oshishiga xizmat qilishdir.

Pul-kredit siyosatining qisqa muddatli va uzoq muddatli oqibatlarini farqlash kerak:


- qisqa muddatli davrda pul taklifining oshirilishi real YaIM o'sishini rag'batlantiradi;
- uzoq muddatli davrda pul taklifining oshirilishi real YaIMga ta'sir ko'rsatmasdan narxlarning oshishiga olib keladi.

Monetar siyosat turlari:


Kat'iy monetar siyosat – pul massasini ma'lum darajada ushlab turish



Egiluvchan monetar siyosat – foiz stavkasini ma'lum darajada ushlab turish



Pul-kredit siyosatining uzatma mexanizmi



5.2. Inflyatsiya darajasi va uni mo'tadillashtirish muammolari.

Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash borasidagi chora tadbirlarning muhim qismi aksinfllyatsiya siyosatidir.

Aksinfllyatsiya siyosati-baholar umumiy darajasini barqarorlashtirish, inflyatsion keskinlikni yumshatishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy siyosat.

Aksinfllyatsiya siyosati inflyatsiyani yuzaga keltirgan sabablarni tugatishga qaratilgan faol va inflyatsiya sharoitlariga moslashishga qaratilgan passiv ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Aksinfllyatsiya siyosati o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- yalpi talabni tartibga solish;
- yalpi taklifni tartibga solish.

Keynschi iqtisodchilar birinchi yo'nalish tarafdorlari bo'lib, ular davlat buyurtmasi va arzon kredit hisobiga samarali talabni shakllantirish asosida yalpi taklif darajasini ko'tarish mumkin deb hisoblashadi. Hukumatnin bu tadbirlar iqtisodiy pasayishni qisqartiradi va ishsizlikni kamaytiradi.

Ammo bunday aksinfllyatsiya siyosati davlat byudjeti taqchilligini yuzaga keltiradi va qo'shimcha pul emissiyasiga ehtiyoj tug'diradi. Keyns davlat byudjeti taqchilligini davlat tomonidan

olinadigan uzoq muddatli qarzlarni hisobiga qoplashni taklif etgan.

“Aksilinflyatsiya siyosatining monetaristik yo‘nalishi tarafdorlari keyinchalik, keynschilarning inflyatsiyaga qarshi kurash bo‘yicha takliflari doimo samara beravermagach va kamchiliklari yuzaga chiqib qolgach yuzaga keldi. Jumladan, bir qator mamlakatlarda davlat qarzi haddan oshib ketdi. Bunday sharoitda monetaristlar radikal aksilinflyatsiya usullarini taklif etishdi. Ular yalpi talabni konfiskatsiya tipidagi pul islohoti o‘tkazish hisobiga cheklash va byudjet taqchilligini ijtimoiy dasturlarni qisqartirish kamaytirishni taklif etishdi”*.

Monetaristlar inflyatsiya aynan pul bilan bog‘liq hodisa bo‘lganligi sababli shok terapiyasi pul massasining o‘shish sur‘atlarini keskin qisqartiradi va inflyatsiya sur‘atlarini tushiradi deb hisoblashadi. Ammo bunda ishlab chiqarish keskin pasayishi va bandlilik qisqarishi mumkin.

Konfiskatsiya tipidagi shok terapiyasi ko‘rinishlaridan biri bo‘lib daromadlarning va baholarning nominal darajalarini o‘zgartirmagan holda eski pullarni belgilangan nisbatda yangisiga alishtirish hisoblanadi.

Bunday tadbirlar aholi tomonidan ohir qabul qilinishi sababli, u qisqa muddatda samara berishi zarur.

Monetaristlar tomonidan taklif qilinayotgan aksilinflyatsiya siyosatining yana bir ko‘rinishi - inflyatsiya sur‘atlarini asta sekinlik bilan pasaytirib borish (graduallash) usulidir. Bu usulda inflyatsiya sur‘atlari pul massasini ko‘p marotalaba, lekin oz ozdan kamaytirish orqali pul massasining o‘shish sur‘atini pasaytirishni ko‘zda tutadi. Graduallash usuli inflyatsiyani asta sekinlik bilan pasaytirib borib iqtisodiyotda chuqur pasayishni oldini olish imkonini beradi.

Graduallash usulini qo‘llash pul massasi va baholar darajasining yillik o‘shish sur‘ati 20-30 foizdan oshmaganda muvaffaqiyatli bo‘ladi, deb hisoblanadi.

Aksilinflyatsiya siyosatining monetar usullarga muqobil bo‘lgan variantlaridan biri baholar va daromadlarni tartibga solish siyosatidir. Bu usul daromadlarning o‘shishi va baholarning o‘shishi ni muvofiqlashtirishni (adaptiv siyosat) ko‘zda tutadi.

Daromadlar va baholarni tartibga solish siyosatini amalga oshirish hukumat tomonidan baholar (narxlar) va daromadlar darajalarini muzlatib qo‘yish, pul ko‘rinishidagi ish haqining o‘shishini o‘rtacha mehnat unumdorligining o‘shishiga bog‘lab qo‘yish orqali amalga oshiriladi.

“Soliqlar tarkibini o‘zgartirish, yalpi soliq tushumlaridagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri soliqlarning ulushini kamaytirish, bilvosita soliqlar ulushini ko‘paytirish, soliq stavkalarini pasaytirish, ularning rag‘batlantirish funksiyalarini kuchaytirish, davlat byudjeti xarajatlarini pasaytirish kabilar ham inflyatsiyaga qarshi kurash tadbirlari hisoblanadi”*.

Aksilinflyatsiya siyosatining u yoki bu turini tanlash inflyatsiya jarayonlarining xususiyatiga bog‘liq.

Inflyatsiyaning yuqori sur‘atlarini oldini olish uchun hukumat quyidagilarni ta‘minlashi kerak:

- samarali soliq tizimini va davlat xarajatlari ning baaqarorligini;
- pul massasi va milliy daromadning bir maromdagi o‘shish sur‘atlarini;
- “inflyatsiyani import qilish” ga yo‘l qo‘ymaslik.

Har qanday inflyatsiyaning negizida asosiy iqtisodiy muvozanatlarning buzilishi yotadi. Shu sababli inflyatsiyaga qarshi kurash — uni shunchaki bostirish emas, balki iqtisodiyotda vujudga kelgan nomutanosiblikni bartaraf etishga qaratilgan baquvvat tarkibiy siyosati-ni amalga oshirishdir. Bir qator chet mamlakatlarining inflyatsiyaga qarshi kurash tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ular inflyatsiya bilan iqtisodiyot tarkibiy tuzilishining buzilishi bir-biriga chambarchas bog‘liq ekanligini anglagan holda, muomala sohasini qat‘iy boshqarish va to‘lovga qobiliyatli ortiqcha umumiy talabni bartaraf etish bilangina cheklanmadilar. Muayyan maqsadlarga qaratilgan yirik investitsiya dasturlarini ishlab chiqdilar va amalga oshirdilar. Bu dasturlar ana shu nomutanosiblikni tugatish va, binobarin, inflyatsiyani keltirib chiqaruvchi sabablarni bartaraf etish imkonini berdi.

5.3. O‘zbekiston Respublikasida pul-kredit siyosatining qisqa va uzoq davrdagi xususiyatlari.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul-kredit siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq **narxlar**

barqarorligini hamda bank va to'lov tizimlari barqaror faoliyat yuritishini ta'minlash maqsadidan kelib chiqadi

2020 yilda jahon iqtisodiyoti va mamlakatimizda pandemiya hamda unga qarshi ko'rilayotgan choralar iqtisodiyotga turli darajadagi tebranish va ta'sirlar ko'rsatdi. Pandemiyaning davom etayotganligi va virusning tarqalishi fonida tashqi va ichki iqtisodiy sharoitlarda noaniqliklar darajasi yanada ortmoqda.

Ushbu noaniqliklarning yuqoriligi va ta'sir kanallarining turlichaligini inobatga olib, makroiqtisodiy rivojlanish prognozlarini 3 xil – asosiy, tezkor iqtisodiy tiklanishga (optimistik) va tashqi iqtisodiy xatarlar kuchayishiga (xatarli) asoslangan muqobil ssenariylarda ishlab chiqildi

Markaziy bankning 2021-2023 yillar uchun makroiqtisodiy prognozlarini bo'yicha ssenariylari:

Asosiy ssenariy

Makroiqtisodiy rivojlanish ssenariylari xususiyatlari va kutilayotgan o'zgarishlar
Pandemiya bilan bog'liq vaziyat bosqichma-bosqich yaxshilanadi, virusga qarshi vaksina va dorilar 2022 yildan boshlab joriy qilinadi, aholi va biznes vakillari o'z faoliyatlarini pandemiya va undan keyingi sharoitlarga moslashgan holda davom ettiradilar.
Asosiy savdo hamkorlar iqtisodiyotining bir maromda tiklanishi hisobiga tashqi talab 2022 yil II yarim yilligidan boshlab inqirozdan oldingi darajasiga yetadi.
Oltin narxi nisbatan barqaror, sekin sur'atlarda pasayib boradi.
Iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari 2021 yil oxirida inqirozdan oldingi darajaga yaqinlashadi, 2023 yilning I yarim yilligiga kelib iqtisodiyot o'zining potensial trendiga darajasigacha chiqadi.
Budjet daromadlari tiklanib borib, 2023 yilda yig'ma budjet defitsiti (O'TTJ hisobga olinmaganda) 2 foizgacha pasayadi.
Tartibga solinadigan narxlar erkinlashtirilishi jarayoni 2022-2023 yillarda amalga oshiriladi.

Markaziy bank tomonidan ishlab chiqilgan jadal iqtisodiy tiklanishga asoslangan muqobil ssenariy (optimistik ssenariy)

Makroiqtisodiy rivojlanish ssenariylari xususiyatlari va kutilayotgan o'zgarishlar
Pandemiya bilan bog'liq vaziyat tez sur'atlarda yaxshilanadi, karantin choralari joriy etilmaydi hamda virusga qarshi vaksina va dorilar 2021 yilning II yarmidan keng joriy qilinadi.
Asosiy savdo hamkorlar iqtisodiyotining bir maromda tiklanishi hisobiga tashqi talab 2021 yil II yarim yilligida inqirozdan oldingi darajasiga yetadi.
Jahon iqtisodiyoti tiklanib borgani sari oltin narxi pasayib boradi.
Iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari 2021 yil o'rtasida inqirozdan oldingi darajaga yaqinlashadi, iqtisodiyot o'zining potensial trendigacha 2022 yilning oxirida tiklanadi. Transport, xizmatlar va turizm sohalarda o'sish sur'atlari jonlanadi.
Budjet daromadlari xarajatlariga nisbatan tezkor sur'atlarda o'sib boradi va yig'ma budjet defitsiti 2022 yilda 2 foizgacha qisqaradi.
Tartibga solinadigan narxlar erkinlashtirilishi jarayoni 2022-2023 yillarda mantiqiy yakuniga yetkaziladi va ushbu sohalarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilinishiga sharoit yaratiladi.

Tashqi iqtisodiy xatarlar kuchayishiga asoslangan muqobil ssenariy (xatarli ssenariy)

Makroiqtisodiy rivojlanish ssenariylari xususiyatlari va kutilayotgan o'zgarishlar
Jahonda pandemiya bilan bog'liq vaziyat keskinlashib boradi va global yopilish 2021-2022 yilda ham davom etadi.


Asosiy savdo hamkorlar iqtisodiyoti tiklanishi sekinlashadi, tashqi talab 2023 yil II choragiga kelib inqirozdan oldingi darajasiga yetadi.
Xavfsiz aktiv sifatida oltin narxining o'suvchi dinamikasi saqlanib qoladi
Iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari 2022 yil oxirida inqirozdan oldingi darajaga yaqinlashadi, iqtisodiyot o'zining potentsial trendi darajasiga 2023 yil oxirida borib yetadi.
Budjet xarajatlari yuqoriligicha saqlanib qoladi va 2021-2022 yillarda yig'ma budget defitsiti 6-7 foiz atrofida shakllanadi.
Tartibga solinadigan narxlar erkinlashtirilishi jarayoni 2023 yildan keyingi muddatlarga qoldirilish ehtimoli oshadi.

Asosiy ssenariyga ko'ra, pul-kredit siyosatining amaldagi "nisbatan qat'iy" sharoitlari 2021 yil so'ngigacha saqlanib qoladi. 2022-2023 yillarda esa tartibga solinadigan narxlar erkinlashtirilishi, inflyatsiya darajasi va prognozi o'zgarish trayektoriyasidan kelib chiqib pul-kredit sharoitlari o'zgartirib boriladi.

Iqtisodiy tendensiyalar ssenariyda keltirilgandek shakllanadigan vaziyatda asosiy stavka bo'yicha ijobiy real foiz stavkasini 3-4 foizlik darajada saqlab turish uchun sharoitlar yuzaga keladi va pul bozorida foiz stavkalar ham shu atrofda shakllanishiga zamin yaratib boriladi.

1-chizma

Pul-kredit siyosatining uzoq muddatli maqsadli ko'rsatkichlari



Pul-kredit siyosatining uzoq muddatli maqsadli ko'rsatkichlari

- Markaziy bank 2020 yildan boshlab pul-kredit siyosatini **inflyatsion targetlash rejimida** amalga oshirib bormoqda va o'rta muddatli istiqbolda pul-kredit siyosati mexanizmlarini mazkur rejim standartlariga **muvofiglashtirish** ishlarini izchil davom ettiradi. Inflyatsion targetlash rejimiga o'tish doirasida pul-kredit siyosatining maqsadli ko'rsatkichlari sifatida **inflyatsiya darajasini** 2021 yilda **10 foizgacha** pasaytirish va 2023 yilgacha **5 foizlik** doimiy darajasiga erishish belgilangan.
- 2023 yildan keyingi davrda pul-kredit siyosati inflyatsiyaning 5 foizlik doimiy maqsadli ko'rsatkichi atrofida shakllanishi uchun zaruriy sharoitlarni ta'minlab borishga qaratiladi.

- Shu bilan birgalikda, Markaziy bank tomonidan har yili kelgusi yil uchun inflyatsiya darajasining **prognoz ko'rsatkichlari** ishlab chiqiladi. Inflyatsiyaning yillik prognoz ko'rsatkichlari shakllangan ichki va tashqi sharoitlar, mamlakatning umumiy makroiqtisodiy holati va inflyatsion omillarning shakllanishidan kelib chiqib yil davomida o'zgartirilishi mumkin.
